

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT KIMYO-TEKNOLOGIYA INSTITUTI

"YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR VA PLASTMASSALAR
TEKNOLOGIYASI"
kafedrası

**“YUQORI MOLEKULALI BIRIKMALAR
KIMYOSI VA FIZIKASI”**

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

Toshkent-2013

Tuzuvchilar: k.f.d., prof. Djalilov A.T.
k.f.n., katta o'qituvchi Ostanov O'.Yu.

Taqrizchi: ToshDTU professori Yodgorov N.

Ma'ruzalar matni "Yuqori molekulali birikmalar va plastmassalar texnologiyasi" kafedrası majlisida muxokama qilingan va fakultet Ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqish uchun iavsiya etilgan.

Bayonnoma _____, "_____" _____2012 y.

Ma'ruzalar matni "Yuqori molekulali birikmalar va plastmassalar texnologiyasi" YoIChOBT fakultetida ko'rib chiqilgan va tasdiqlash uchun TKTI Ilmiy-uslubiy Kengashi uchun tavsiya etilgan.

Bayonnoma _____, "_____" _____2012 y.

Ma'ruzalar matni "Yuqori molekulali birikmalar va plastmassalar texnologiyasi" Toshkent Kimyo-Texnologiya instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Bayonnoma _____, "_____" _____2012 y.

KIRISH.....	6
MA'RUZA 1	
YUQORI MOLEKULYAR BIRIKMALAR TASNIFI.....	7-15
MA'RUZA 2	
POLIMERLARNI OLISH USULLARI.....	16-24
MA'RUZA 3	
RADIKAL POLIMERLANISH.....	25-36
MA'RUZA 4	
ION POLIMERLANISH.....	37-44
MA'RUZA 5	
SOPOLIMERLANISH.....	45-49
MA'RUZA 6	
POLIKONDENSATSIYALASH.....	50-57
MA'RUZA 7	
POLIMERLARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI	
POLIMERANALOGIK UZGARISHLAR.....	58-60
MA'RUZA 8	
POLIMERLARDAGI TURLI TUMANLIKLAR.....	61-66
MA'RUZA 9	
POLIMERLARNI MAKROMOLEKULALARI TUZILISHI BO'YICHA TURLI-TUMANLIGI. ZANJIR KONFIGURATSIYASI, MAKROMOLEKULALARNING IZOMERLANISHI.....	67-72
MA'RUZA 10	
INDIVIDUAL MAKROMOLEKULALARNING STRUKTURASI.....	73-79
MA'RUZA 11	
POLIMERLAR EGILUVCHANLIGI.....	80-85
MA'RUZA 12	
YUQORI MOLEKULYAR MASSALI BIRIKMALARNING AGREGAT VA FAZAVIY HOLATLARI.....	86-90
MA'RUZA 13	
SHISHASIMON (AMORF) POLIMERLANISHNING MEXANIK (DEFORMATSION) XOSSALASH.....	91-96
MA'RUZA 14	

POLIMERLARNING USTKURTMA (NADMOLEKULYAR) STRUKTURASI.....	97-105
MA'RUZA 15	
KRISTALL POLIMERLAR.....	106-116
MA'RUZA 16	
KRISTALL POLIMERLARNI MEXANIK (DEFORMATSION)	
XOSSALARI.....	117-121
MA'RUZA 17.	
POLIMERLARDA RELAKSATSIYA XODISASI.....	122-130
MA'RUZA 18	
POLIMERLARNING CHIN ERITMALASH VA KOLLOID	
SISTEMALARI.....	131-138
MA'RUZA 19	
POLIMERLARNI SUYULTIRILGAN ERITMALARI.....	139-147
MA'RUZA 20	
POLIMERLARNI PLASTIFIKATSIYALASH.....	148-151
ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	151-
152	

ANNOTATsIYa

Fanning maqsadi talabalar tomonidan yuqori molekulali birikmalar rivojining xozirgi zamon yo'nalishlari, yuqori molekulali birikmalar tuzilishining va xossalarining o'ziga xosligi, polimerlarni olinishi va qayta ishlanishi, turli polimer materiallar va buyumlar, xususan polimer plenka materiallar, qoplama xosil qiluvchilar, sun'iy charm, tola, izolyatsion materiallar olish jarayonlarining asosi bo'lgan bu sinf birikmalarining tub masalalarini o'rgatishdir.

Fanning vazifasi: Talabalar tomonidan yuqori molekulali birikmalar tasniflanishi va nomlanishi, polimer xossalarining o'ziga xosligi, ularning quyi molekulali birikmalardan farqi; yuqori molekulali birikmalar olish jarayonlarining, polimer kimyoviy o'zgarishlarining asosiy usullarini va qonuniyatlarini o'rganish; polimerlarning tuzilishi, agregat, fazaviy va fizik xolatlari, kristall va amorf polimerlarning tuzilishi xaqidagi zamonaviy qarashlarni o'rganish; polimer va ular asosidagi materiallarni turli fizik va fazaviy xolatlardagi mexanik tutishining xususiyatlari; polimerlar erishining qonuniyatlarini o'rganishdir.

«Yuqori molekulali birikmalar kimyosi va fizikasi» fanini tarkibini qo'yidagilar tashkil etadi:

- yuqori molekulali birikmalarni quyi molekulali birikmalardan farqi;
- yuqori molekulali birikmalardagi turli-tumanliklarni baxolash, ularni molekulyar og'irligini, molekulyar massa bo'yicha taqsimlanishini aniqlash;
- polimerlanish, polikondensatsiyalanish, polimeranologik o'zgarishlar kabilar bilan yuqori molekulali birikmalarni sintez qilish;
- individual makromolekula tuzilishi;
- yuqori molekulali birikmalarni agregat, fazaviy, fizik xolatlari;
- yuqori molekulali birikmalarni fizik-mexanik xossalarining xususiyatlarini namoyon bo'lishi va fizik xolatlarining o'ziga xosligi;
- ikki, uch komponentli polimerlar asosidagi sistemalarning fazaviy diagrammalari;
- polimer eritmalarining qovushqoqlik xossalari bo'yicha molekulyar og'irligini aniqlash;
- kontsentrangan, suyultirilgan eritmalarini farqi, oqish egri chizig'i va ular asosida polimerlar eritmasini reologik xossasi.

KIRISH

Xozirgi kunda fanni va texnikaning rivojini sanoatni diyarli barcha tarmoqlarida keng qo'llaniladigan polimerlarsiz tassavvur qilib bo'lmaydi.

Yukori molekulyar birikmalarning unikal xossalari sintetik va sun'iy tolalarda, kauchuk va rezinalarda, plenkalarda, koplamalarda, sun'iy charmda namoyon bo'ladi. Sanab o'tilgan materiallarni faqat yuqori molekulyar birikmalardan (YuMB) olish mumkin. Sintetik YuMB konstruksion materiallar - rangli va qora metallarni o'rinbosari sifatida ma'lum bo'lib bunda buyumlarni tannarxi va vazni kamayadi.

YuMB dan olingan materiallar avtomobil, kemasozlik, aviasozlik va mashinosozlikda, radioelektronika va elektronika, qurilishda, qishloq xo'jaligida, tibbiyotda, oziq-ovqat va engil sanoatda keng qo'llaniladi. Ammo sanoat tarmoqlarining polimerlarga bo'lgan talabi, ularni ishlab chiqarish suratlaridan ilgarilab ketmokda.

"Polimerlar kimyosi va fizikasi" kursi polimerlar va ularni buyumga qayta ishlash haqidagi fanning asosi bo'lib,unga kirishdir.

Ma'ruza 1

Yuqori molekulyar birikmalar tasnifi

YuMB (polimer)ning molekulasi yoki makromolekula (yunonchadan makros-katta, buyuk) yuzlab va minglab atomlardan tashkil topgan, ular o'zaro bo'sh valent bog'lar bilan bog'langandir.

Kelib chiqishi va olinish usuliga qarab YuMB tabiiy, sun'iy va sintetik polimerlarga bo'linadilar.

Tabiiy materiallardan ajratib olingan polimerlar tabiiy polimerlar deyiladi (tsellyuloza, kanifol, shellak).


Tabiiy polimerlarni kimyoviy modifikatsiyalab olingan polimerlar tabiiy polimerlar deyiladi (tsellyuloza efirlari).

Quyi molekulyar birikmalardan sintetik usulda olingan polimerlar sintetik polimerlar deyiladi (PE, PS, PVX, PK, PA va x.k). Elementar zvenoning kimyoviy tuzilishi bo'yicha polimerlar organik, noorganik va elementoorganik polimerlarga bo'linadilar.

Organik polimerlar S-N bog'lar, funktsional guruxlar saqlab tarkibida azot, kislorod, galogen kabi atomlar bo'lishi mumkin.

Noorganik polimerlar S-N boglarni saqlamaydi.

Elementoorganik polimerlar organik va noorganik guruxlardan tashkil topadi.




R - organik radikal


Bog'larning qutblanganligiga qarab polimerlar qutbli va qutbsizlarga bulinadilar.

Asosiy zanjir atomlarining tabiatiga qarab polimerlar gomozanjirli va geterozanjirlilarga bulinadilar.

Gomozanjirli polimerlarda asosiy zanjir bir xil atomlardan tashkil topgan bo'ladi.



Geterozanjirli polimerlarda asosiy zanjir ikki va undan ortiq atomlardan tashkil topgan bo'ladi.



Makromolekulasi bir xil qaytariluvchan zvenolardan tashkil topgan polimer GOMOPOLIMER deyiladi.


Makromolekulasi bir necha turdagi monomer zvenolaridan tashkil topgan polimerlar SOPOLIMERLAR deyiladi. Sopolimerlarning quyidagi turlari mavjud:

Statistik- A A V A V V A -

Tartibli ketma-ket- A V A V A V A -

Blok-sopolimerlar - A A A A V V V -

Payvand sopolimerlar - A A A A A A A -



A va V - qaytariluvchan zvenolarni shartli belgisi


Asosiy zanjir tuzilishiga qarab makromolekulalarni chiziqli juft chiziqli,

tarmoqlangan va tursimon turlarini farqlanadi.

chizikli

juft chizikli

Narvon polimerlar




YuMB to'g'risida umumiy ma'lumotlar




Modda polimer xolatining xususiyatlari

YuMB makromolekulasi bir xil atom guruxlaridan, ya'ni ELEMENTAR ZVENOLARdan, KAYTARILUVCHAN ZVENOLARdan tashkil topgan.

Masalan:



Polimerlar olish uchun kullaniladigan kuyi molekulyar birikma-lar MONOMERLAR deb ataladi.



Makromolekula zanjiriga kirgan elementar zvenolar soni POLIMERLANISH DARAJASI (n) deb ataladi. Polimerning MOLEKULYAR MASSASI iuyidagiga teng

$$M = m \cdot n$$

m- zveno molekulyar massasi

n - polimerlanish darajasi

Molekulyar massasi 400-6000 oralikda etgan YuMB OLIGOMERLAR deb atadadi.

Makromolekulalarning eng muxim xususiyatlaridan biri ularning **zanjir tuzilish**ga ega ekanligidir, ya'ni molekula buylama o'lchamining ko'ndalang o'lchamidan juda katta ekanligidir. Makromolekulaning zanjir tuzilishi ularda kuyi molekulyar birikmalardan farqlovchi bir qator xossalar namoyon bulishiga sababdir.

Birinchidan, makromolekulaning zanjir tuzilishi ular urtasidagi boglanishning o'ta mustaxkamligini belgilaydi. Bu polimerlarga tola va plenka

hosil qilish imkoniyatini beradi.

Ikkinchidan, zanjir tuzilish makromolekulalarning boshqa muxim xossasi bo'lgan egiluvchanlik bilan birga fakat ularga xos bulgan xossa - elastiklikni, ya'ni kichik yuklanish ta'sirida katta qaytar deformatsiyalanish kobiliyatini namoyon bo'lishini keltirib chiqaradi.

Uchinchidan, makromolekulaning zanjir tuzilishi va katta o'lchamlari YuMB va quyi molekulyar birikmalarning erish jaraenlaridagi muxim farqlarning sababchilaridir. YuMBning erishdan oldin ularni bo'kishi kuzatiladi.

Polimerlar uchun ularni zanjir tuzilishi bilan boglik xolda makromolekulalarni kimeviy uzini tutishining bir kator xususiyatlari mavjuddir. Bular jumlasiga tushanish, kooperativ jaraenlar, funktsional guruxlar reaksiey aktivligaga kushni zvenolarning ta'siri kabilar kiradi.

YuMB va kuyi molekulyar birikmalar atomlar orasidagi bog tabiati bir xil bulib, organik kimyoning deyarli barcha qonunlari YuMB ga xam ta'luklidir.


YuMB va kuyi molekulyar birikmalar o'rtasidagi asosiy farqlar quyidagilardir:

	KMB	YuMB
Molekulyar massa	< 10 000	> 10 000
Sof toza modda	individual modda	noindividual modda (turli tumanlik xos)
Erish	bukishsiz amalga oshadi	odatda bukish bilan boradi
Uchuvchanlik	qisman uchuvchan	uchuvchan emas
Molekula shaklining ta'siri	deyarli yuk	katta

Statistik



Taroqsimon




yulduzsimon




to'rsimon

Parket



fazoviy



Asosiy terminologiya

Makromolekula -	uzaro kimeviy bog'lar bilan bog'langan atomlar guruxidan tashkil topgan molekula bo'lib, uning molekulyar massasi 10000 dan ortiq.
Polimerlar -	yukori molekulyar birikmalar (termin ko'proq sintetik polimerlarga nisbatan qo'llaniladi)
Elementar -	zvenolar urtasida bir turdagi bog'lar xosil kilish yo'li bilan makromolekula xosil kiluvchi mustakil birlikni tashkil qiluvchi atomlarning minimal guruhi
Polimerlanish	makromolekuladagi elementar zvenolar soni

darajasi-	
Polimergomo-logik kator	u tarkibi va tuzilishi bir xil bulgan, ammo molekulyar massasi bilan fark kiluvchi YuMB
Molekulyar massa buyicha turli-tumanlik	amalda istalgan YuMB polimergomologik katorni tashkil qiluvchi makromolekulalardan tashkil topgan bo'lib, mavjud uslublar bu aralashmani aloxida fraktsiyalarga ajratish imkonini bermaydi
Taksimlanish funktsiyasi -	molekulyar massa buyicha polidisperslik kiymati- ning matematik ifodasi bulib, MM buyicha turli-tuman bulgan kgolimerning 1 g da ma'lum molekulyar massali moddaning mikdorini (massaviy taqsimot funktsiyasi) yoki 1 mol moddada berilgan polimerlanish darajali makromolekulalar sonini (sonli taksimot funktsiyasini) kursatadi
O'rtacha MM -	molekulyar massa buyicha turli-tuman bulgan moddaning ayrim molekulalarining MM yigindisini massaga (urtacha vazniy MM) yoki makromolekulalarning umumiy soniga (urtacha sonli MM) nisbati.
Fraktsiyalash -	MM buyicha taxminan bir xil bulgan makromolekulyarni ajratib olishning eksperimental uslubi. Ravshanki, ayrim fraktsiyalarda MM buyicha polidisperslik kamayadi va taksimlanish yakkolrok bulib koladi. Fraktsiyalash taksimlanish egri chizigini kurishda xam qo'llaniladi
Polimeranalogik uzgarishlar	polimerlanish darajasini uzgartirmasdan YuMB olish
Chiziksimon, rotarmoklangan, to'rsimon YuMB -	zanjir konfiguratsiyasi xisobiga xosil bulgan makromolekula tuzilishi

Konfiguratsiya -	makromolekulani tashkil kiluvchi atomlarni ma'lum fazoviy joylashishi bulib, u issiklik xarakati natijasida uzgarmaydi.
Konformatsiya -	Makromolekulalarda uni tashkil kilgan atomlar, atom guruxlari (xusuoan enaki tamokdagilari) urtasida-gi uzaro ta'sir va absolyut noldan farkli istalgan temperaturada issiqlik xarakati mavjuddir. Bu xar bir vakt davomida makromolekulaga muayan konformatsiya xosligini keltirib chikaradi. Xar bir konformatsiya fazoda atom, atom guruxlarining ma'lum bir tartibda joylashishi bilan xarakterlanadi. Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish issiklik ta'sirida yoki tashki kuchlar ta'sirida kimeviy boglar uzilmasdan σ -bog atrofida burilish, tebranish xisobiga amalga oshadi
Bukish -	kattik moddalarni uz xajmini va og'irligini oshirib, suyuqlik yutish kobiliyatidir. YuMB ning bukish darajasi makromolekulaning shakliga va o'lchamiga bog'liq. Chiziksimon va tarmoklangan makromolekulalar cheksiz bukadi, tursimon polimerlar esa chekli bukadi.
Polimerlanish-	tuyinmagan monomerlardan kuyi molekulyar birikmalar ajralib chikmasdan radikal yoki ion zanjir reaksiyalari mexanizmi bilan boradigan YuMB sintez qilish jarayoni.
Sopolimerlanish-	turli monomerlarni bir biri bilan reaksiyaga kirishib YuMB xosil kiladigan polimerlanish jaraeni
Polikondensatsiyala nish-	bi- yoki polifunktsional kuyi molekulyar birikmalardan YuMB sintez kilish jaraeni bu-lib, unda kuyi molekulyar birikmalar ajralib chikadi.

Tayanch suz va iboralar

Polimer, makromolekula, elementar zveno, monomer, polimerlanish darajasi, makromolekula xususiyatlari, yukori molekulyar birikmalar klassifikatsiyasi, asosiy zanjir tabyatiga kura, sopolimer, gomopoli-mer, asosiy zanjir tuzilishi buyicha.

Kaytarish uchun savollar

1. Makromolekula strukturasini kanday parametrlar xarakterlaydi?
2. Kaysi polimerlarni organik, noorganik, elementoorganik, gomopolimer va geterozanjirli polimerlar deyiladi?
3. Yukori molekulyar birikmalar kanday tasniflanadi?
4. Yukori molekulyar birikmaga ta'rif bering.
5. Yukori molekulyar birikmalarga oid kanday asosiy atamalarni bilasiz?
6. Yuqori molekulyar birikmalarni sanoatda va turmushda tutgan urni xasida gapirib bering.
7. Yuqori molekulyar birikmalarni quyi molekulyar birikmalardan afzallik va kamchiliklari.
8. Yuqori molekulyar birikmalarni o'ziga xos xususiyatlari.
9. Qanday polimerlarni sun'iy, sintetik va tabiiy polimerlar deyiladi? Misol keltiring.
10. Polimerlarni chiziqli, tarmoqlangan va to'rsimon turlariga ta'rif bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M.A., Eriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi. Toshkent. O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M.: Ximiya, 1976, 437 s.

Ma'ruza 2


2-bob. POLIMERLARNI OLISH USULLARI

Polimerlar kuyi molekulyar moddalardan ikki xil uslubda sintez kilib olinadi: polimerlanish va polikondensatsiyalanish. Polikondensatsiyalanishda monomerlar funktsional guruxlar buyicha reaksiya tufayli birikajlar. Bunda reaksiyaning kuyi molekulyar maxsuloti ajralib chikadi. Polimerlanishda makromolekulalar tuyinmagan bog'larni yoki xalkani ochilishi xisobiga xosil buladi.

YuMB olishning ana shu asosiy usullarini ko'rib chikaylik.

Polimerlanish

O'sayotgan zanjir olishda joylashgan aktiv markazga monomer molekulalarini ketma-ket birikishi bilan boradigan zanjir reaksiya POLIMERLANISH deyiladi. Bunda aktiv markazni zanjir bo'ylab siljishi kuzatapadi.



Polimerlanish zanjir reaksiyalar turkushga kirib, uning konuniyatlariga buysinadi. Zanjir reaksiyalar deb aktiv zanjirlar (aktiv markazlar) xosil kilib, bu aktiv markazalarning xar biri ketma-ket reaksiyalar zanjirini keltirib chikarashchgak reaktsskyalarga aytiladi. Aksariyat xolatda aktiv zarrachalar sifatida tashqi elektron kavatida juftlanmagan elektronga ega bulgan radikallar qatnashadi.

Polimerlanish quyidagi asosiy boskichlarni o'z ichiga oladi: aktiv markazni xosil bulishi, zanjir usishi va zanjir uzilishi. Aktiv markazni xosil bo'lishi katalizator eki initsiataorni monomer bilan ta'sirlashishi natijasida sodir buladi. Bu boskich energiya sarfini talab kiladi va past tezlik bilan xarakterilanadi. Zanjir usishi monomer mrolekulalarini aktiv markazga birikishi bilan sodir buladi. Va aktiv markazni birikkan molekulaga kuchishi sodir buladi.


Bu bosyiqich energiya ajralib chiqishi bilan boradi va yuqori tezlik bilan xarakterlanadi.

MATERIAL va KINETIK ZANJIRLARNI farklashadi. Material zanjir deganda molekulani tashkil kiluvchi zvenolar soni eki polimerlanish darajasi, kinetik zanjir deganda initsiirlash natijasida xosil bulgan bitta erkin radikalga tugri keluvchi birikish elementar aktlar soni tushinidadi. Zanjir uzilishi (bunda material zanjir uzilishi tushuniladi) reakshchyasida aktiv zanjirlarni dezaktivlanishi sodir bulib makromolekula usishi tuxtaydi.


Polimerlanishda aktiv mayukaz sifatida bitta yoki ikkitta juftlanmagan elektroni bulgan elektroneytral zarrachalar - erkin radikallar, musbat eki manfiy\zaryadlangan zarrachalar – ionlar, ion-radikallar namoyon bo'lishi mumkin. Aktiv markaz tabiatiga qarab radikal va ion polimerlanishlarni farklashadi.

Polimerlanish sodir bulishi uchun monomer molekulasi tuyinmagan boglar (tuyinmagan monomerlar), nobarkaror xalkalar yoki reaktсион faol funktsional guruxlar saklashi kerak.


TUYINMAGAN MONOMERLAR polimerlanish jarayonida ochiladigan ikkilamchi va uchlamchi qo'sh bog'lar ($>S=S<$, $-S\equiv S-$, $>S=O$, $-ON$ va boshkalar) saklovchi moddalar (olefinlar, dien va atsetilen uglevodorodlar, nitrillar va boshkalar) dir. Bu monomerlar, quyidagi sxema buyicha polimerlanadilar:



Halka ochilishi xisobiga polimerlanadigan monomerlar (Olefinlarning oksidlash, laktamlar, laktonlar va boshkalar) quyidagi sxema buyicha polimerlanadilar:



Agar monomer molekulasida bir nechta urinbosarlar bulsa sterik faktorlar belgshovchi rol uynay boshlaydilar: o'rinbosarni kiritilishi qo'sh bogni to'silishiga olib kelib, monomerni reaksion faolligini susayishini keltirib chikaradi. Bunda urinbosarlarni soni, joylashsh xarakteri, ulchami axamiyatga ega. Masalan, antratsen



stirolga qaraganda reaksion foalligi kamrok. O'rinbosarlar simmetrik joylashganda qo'sh bogni kutblanishi sodir bo'lmaydi, ammo o'rinbosarlarni to'siq (ekran) vazifasini bajarishi polimerlanishga yul qo'ymaydi. Aksincha urinbosarlar nosimmetrik joylashganda qo'sh bog' kuchli kutblanadi va bu turdagi monomerlar oson polimerlanadilar. Masalan 1,1 - dixloretan $\text{SN}_2 = \text{SS1}_2$ oson polimerlanadi, 1,2-dixloretan $\text{S1}_2\text{S} = \text{SS1}_2$ esa polimerlanmaydi.

O'rinbosarlarni monomerni polimerlanishiga tasiri dien uglevodorodlarda yana xam murakkabrokdir (jadval)

Jadval.

Uribosarlarni dienlarni polimerlanish tezligiga ta'siri

Monomer	Formulasi	Nisbiy polimerlanish tezligi
Butadien -1,3	$\text{SN}_2 = \text{SN} - \text{SN} = \text{SN}_2$	1.0
2-metilbutadien-1,3 (izopren)	$\text{SN}_2 = \text{S} - \text{SN} = \text{SN}_2$ SN_3	1.25

Pentadien-1,3 (piperilen)	$\text{SN}=\text{SN} - \text{SN} = \text{SN}_2$ SN_3	0.38
2,3-dimetilbutadien-1,3	$\text{SN}_2=\text{S} - \text{S} = \text{SN}_2$ $\text{SN}_3 \text{ SN}_3$	3.75
1-xlorbutadien-1,3	$\text{SIC} = \text{SN} - \text{SN} = \text{SN}_2$	8.75
2-xlorbutadien-1,3 (xloropren)	$\text{SH}_2 = \text{S} - \text{SN} = \text{SN}_2$ Cl	875
2,3-dixlorbutadien-1,3	$\text{SH}_2 = \text{S} - \text{S} = \text{SN}_2$ $\text{Cl} \quad \text{Cl}$	2500

Jadvaldan kurinadiki, birinchi va to'rtinchi uglerod atomidagi elektronodonor urinbosarlar polimerlanish tezligini kamaytiradilar, aksincha ikkinchi va uchinchi uglerod atomidagi urinbosarlar tezlikni biroz oshiradilar. Elektronoaktseptor tabiatidagi urinbosarlar esa monomerlar aktivligini oshiradilar va bu effekt urinbosarlar urtadagi uglerod atomlarida bo'lsa, ayniqsa kuchli buladi.

Termodinamik Faktorlar. Monomerni polimerlanish kuyidagi shart bajarilganda mumkin buladi:

$$\Delta G = \Delta H - T \Delta S < 0$$

,u erda, ΔG , ΔH , ΔS - monomerni polimerga aylangandagi sistemanning Gibbs erkin energiyasini, entalpiya soni va entropiyasinning o'zgarishi.

Tuyinmagan monomerlarni polimerlanishi xoli uchun $\Delta H < 0$, $\Delta S < 0$. Bu shuni angalatadiki, polimerlanish jarayoni kandaydir chegaraviy temperaturadan past temperaturada mumkin buladi. Sababi $\Delta H > T\Delta S$, yoki $T < T_q = \frac{\Delta H}{\Delta S}$ bo'lganda $\Delta G < 0$ bajariladi.

(bu erda T_{ch} - polimerlanishni yukori chegaraviy temperaturasi).

$T > T_{ch}$ va $\Delta G > 0$ xolda polimerlanish termodinamik takiklangan bulib fakat makromolekulalarni depolimerlanishi mumkin.

$T = T_{ch}$ va $\Delta G = 0$ xolda sistemada polimerlanish - depolimerlanish muvozanati o'rnatiladi

Keltirilgan xulosalar polimerlanish jarayonida monomer va polimerni kontsentratsiyalari o'zgarmas bo'lgan xol uchun chiqarildi. Bu xol, masalan geterofazali polimerlanishda va massada polimerlanishda kuzatiladi

Kengrok tarkalgan erituvchida yoki massada shmogen polimerlanishda monomerning kontsentratsiyasi polimerlanish jarayonida o'zgaradi. Bu sistemalar uchun polimerlanishning chegaraviy muvozanat temperaturasi monomerning muvozanat kontsentratsiyasiga boglik:

$$T_q = \frac{\Delta H^0}{\Delta S^0 + R \ln [M]}$$

$\Delta N^0, \Delta S^0$ – polimerlanishning standart entalpiyasi va entropiyasi.

Polimerlanishshshg standart Gibbs energiyasi, entalpiyasi va entropiyasi eritmada sof monomerni eki 1 mol monomerni amorf polimerga aylanishiga taalluklidir.

Polimerlanishshchng issiklik effekta boglarning energiyasi orali xisoblanishi mumkin:

$$-\Delta H = 2E_{\text{bch}} - E_{\text{ukch}}$$

bu erda, $E_{\text{bch}}, E_{\text{ikch}}$ - mos ravishda birlamchi va ikkilamchi bog'larning energiyasi.

Etilen xosilalari uchun $2E_{\text{bch}} > E_{\text{ikch}}$, shuning uchun bu monomerlarni polimerlanishi ekzotermik jarayondir. Uglerod-uglerod kush bogli monomerlarning polimerlashsh issiklik effekti kush bog bilan boglangan uglerod atomidagi urinyosarning borligiga boglik (jadval).

Jadval

Kush bogli ayrim birikmalarning polimerlanish issiklik effekti va polimerlanishning chegaraviy temperaturasi

Monomer	$-\Delta N$, kJ/mol	T_{ch} , K	Monomer	$-\Delta N$, kJ/mol	T_{ch} , K
Etilen	94.3	624	Formaldegid	21.0	393
Stirol	75.8	670	Atsetaldegid	0	242
Metilakrilat	78.0	-	Atseton	0	100
Metilmetakrilat	55.3	470	Atsetonitril	-15.5	-

Bu bog'liklik birinchi navbatda bunday urinbosarlarni kush bog bilan uzaro bog'likq aloqadorlik (sopryajenie) effekti va bu effekt xisobiga kush \yugning ochilish energiyasining kamayishi bilan tushuntiriladi. Qo'sh bog'ga nisbatan α -xolatga ikkinchi o'rinbosarni kiritilishi polimerlanish issikjk effektini yana xam ko'proq kamaytiradi. Qo'sh bog' xosil qilishda geteroatom katnashgan birikmalar uchun polimerlanish issiklik effektining sezilarli kamayishi xosdir.

ΔN° , ΔS° larning ma'lum kiymatlaridan monomerning muvozanat kontsentratsiyasi va polimerlanishning chegaraviy temperaturasi xisoblab topilishi mumkin. Jadvaldan ko'rinadiki, vinil monomerlarining polimerlanish issiklik effektining qiymati katta bo'lgani uchun ularning polimerlanishning chegaraviy temperaturasi xam kattadir. $-S=O$ qo'sh bog' bo'yicha polimerlanadigan asosiy monomerlarning polimerlanish issiqlik effekti juda kichik va nolga yaqindir. Shuning uchun, formaldegiddan boshqa aldegid va ketonlarni polimerlari olinmagan. Sababi ular faqat manfiy temperaturadagina termodinamik turg'undirlar.

Tayanch so'z va iboralar

Polimerlanish, zanjir reaksiyalar, polimerlanish boskichlari, aktiv markaz, zanjir usishi, kinetik zanjir, material zanjir, zanjir uzilishi, monomerlar polimerlanish kobiliyati, indastion effekt, sopryajenie effekti, urindoshlar polimerlanishga ta'shri. Termodinamik faktorlar.

Kaytarish uchun savollar

2. Polimerlanish bu kanday reaksiya? Zanjir reaksiyalar xakida nima bilasiz?
3. Polimerlanishni polikondensatsiyadan farkini ayting.
4. Polimerlanish boskichlariga tavsif bering.
5. Zanjir uzatilishi nima?
6. Monomerlarni polimerlanish kobiliyati kanday faktorlar bilan belgilanadi?
7. Monomerlarni polimerlanish kobijyatiga ta'sir kiluvchi kinetik faktorlarni tavsiflang
8. Monomerlarni polimerlanishga ta'sir kiluvchi termodinamik faktorlarni tavsiflang.
9. Polimerlanish reaksiyasi mexanizmi xaqida gapirib bering.
10. Faol markaz tabiatiga ko'ra qanday polimerlanish reaksiyalarini farqlash mumkin?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D. ,Jiltsov S.F., Kashaeva V. N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M.A., Eriev O., Edgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, Ukituvchi, 1993

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A. A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M.:Ximiya, 1976, 437s.
2. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V.A. M.: Ximiya, 1985, 224 s.
3. Praktikum po ximii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F., M.: Ximiya, 1978.


Ma'ruza 3

RADIKAL POLIMERLANISH


Radikal polimerlanishda aktiv markaz erkin radikaldir. Radikal polimerlanish barcha zanshr reaksiyalar kabi uch boskichdan iboratdir: aktiv markazni xosil bulishi, zanjir usishi va zannir uzi-lishi. Bu boskichlarni batafsilrok kurib chikaylik.

Aktiv mashsazni xosil bulishi. Aytib utilganidek aktiv markaz sifatida erkin radikallar yuzaga chikadi. Ular tashki elektron ko-bigida juftlanmagan

elektronlar bulishi xisobiga elektrofил xos-salarni namoen yutsadi. Bu aktiv zarrachalar π - va σ - boglarni elektron juftlari bilan ta'sirlashib, uni erkin radikalga aylantiradi:



Erkin radikallar xosil kilish energiyasi quyidagi katorda kamayib boradi:




Radikalni xosil kilishga kancha kam energiya sarf kilinsa, u shuncha oson xosil qiladi va turgun buladi. Shu sababli turgunligi bo'yicha yuqorida keltirilgan radikallar quyidagi katorga joylashadilar:




Radikal polimerlanishda aktiv markazni xosil kilishni bir necha xil usullari bor: termik initsirlash, fotokimeviy initsirlash, radiatsion initsirlash, kimeviy initsirlash.

Termin initsirlash. 100°S dan yukorida sezilarli darajada ketadi.

Aksariyat xollarda turli kushimchalarning termin parchalanishi xisobiga sodir buladi. Shu kunga kejb fakat stirol va metilmetakrilat monomerlarining uzi initsirlab, termik polimerlanishi isbot kilingan. Termik initsirlash kuyidagi sxema bo'yicha ketadi:




Fotokimeviy initsirlash. Radikallar monomerni ultrabinafsha nur (X = 400 nm) bilan nurlantirilganda kuyidagi sxema buyicha xosil buladi:



M* - monomerning ko'zg'algan molekulasini


Ultrabinafsha nurlarni tulkin uzunligi oblastida monomer nurlarni yutmasa radikal xosil kilish uchun fotosensibilizatorlar, ya'ni kuzgolish energiyasini monomer molekulasiga beruvchi birikmalar kullaniladi.



Fotosensibilizatorlar sifatida π -elektronlari oddiy bog bilan oralatib (sopryajenie) kelgan birikmalar ishlatiladi, masa-lan benzofenon $\text{S}_6\text{N}_5\text{S}$ O S_6N_5 .

Radiatsion initsirlash. Radioaktiv, nurlanish ta'sirida monomer, erituvchi molekulari eki kushimchalar elektron yo'qotib ionlanadilar va keyingi utishlar xisobiga radikalar xosil buladi.

Masalan:




bu erda, M^* - kation va elektronni rekombinatsiyalanishi hisobiga xosil bulgan monomerning qo'zg'olgan molekulasini.


Agar qo'zg'olish energiyasi bog energiyasidan yukori bulsa kuzgolgan molekula radikallarga parchalanadi.

Kimeviy initsirlash. Aktiv markaz xosil kilish uchun erkin ra-dikallar xosil qilib oson parchalanadigan moddalar qo'llaniladi. Bu moddalar turkumiga peroksidlar, gidroperoksidlar, azo- va di-azobirikmalar, oksidlanish-kaytarilish sistemalari knradi.

Peroksidlar kullanilganda erkin radikalalrni xosil bulishi-ning asosiy reaksiyai 0-0 bogining gomolitik parchalanishidir. Parchalanish tezligi peroksidning tuzilishiga va muxitga boglik. Peroksidlarning tipik vakili benzoil peroksid bulib, u (27 -60)°S da ikkita benzoat radikaliga parchalanadi:




Xosil bulgan benzoat radikallari yana fenol va SO_2 radikallariga parchalanadi::




Benzoil peroksidni parchalanishi kizdirilgavda tezlashib, kislorod ishtirokida sekinlashadi.




Gidroperoksidlarning erkin radikallar xosil kidib parchalanishi 0 - 0 bogni uzilishi xam xisobiga boradi:




Azobirikmalardan initsiator sifatida azobisizobuironitril ishlatiladi, Bu oirikma S – N bog buyicha ikkita radikalga parchalanib, natijada azot ajralib chikadi




Radikal polimerlanishni initsirlashda oksidlanish-kaytarilish sistemalari xam kullaniladi. Buchinitsiatorlarni avfzallik tarafi shundaki, initsiatorni erkin radikallarga parchalanish energiya aktivatsiyasi past bulib, polimerlanish jarayonini past temperaturada olib borish imkonini beradi va energiya sarfini kamaytiradi. Masalan, termik initsirlashda initsiatorni erkin radikallarga parchalanish jaraenining aktivlanish energiyasi 125-170 kJ/mol bulsa, oksidlanish kaytarilish initsiatorlarining parchalanish jaraening aktivlanish energiyasi 50-84 kJ/mol dir. Oksidlanish-qaytarilish sistemalariga misollar:




Kaytaruvchilar sifatida ikki valentli temirning tuzlari, sul'fitlar, tiosul'fatlar, oksikislotalar xam ishlatiladi. Hidro-peroksidlarni ikki valeshchushch tuzlari ishtirokidagi parchalanishi ku-yidagicha ketishi mumkin:



Initiatorni parchalanishni keltirib chikadigan Fe^{2+} ionlarini tiklash uchun sistemaga oksidlovchi qo'shiladi:



Zanjir usishi. Makromolekula xosil bulishiga olib keladigan radikal polimerlanishning asosiy boskichidir. To'yinmagan monomer-ning aktiv markazga xar bir birikishida monomerning π -bogi uziladi va erkin radikalning juftlanmagan elektrshi bilan σ -bog xosil buladi. Bunda π -bogshng ikkinchi elektroni juftlanmay qoladi va aktiv markaz tuzilishi saklanib koladi.




Zanjir o'sishi reaksiyasining aktivlanish energiyasi 17-42 kDj/mol

ga teng bulib reaksiya ulkan tezlik bilan boradi. Masalan, 1 sekunda 10000 tagacha monomer birikishi mumkin. Zanjirning usish reaksiya tezligi monomerning reaksiyaga kirishish kobiliyatiga va usayotgan polimer) radikalning aktivligiga boglik. Zanjir o'sish reaksiyasining tezjgiga erkin radikallar tuzilishi eng katta bulib, u aktiv radikalparni monomer molekulasiga birikish tezligini belgilaydi. Masalan, erkin radikallarni elektromanfiyligi ortishi bilan ularni etilen molekulasiga birikish tezligi ortadi va bu reaksiyaning aktivlanish energiyasi kamayadi. Radikal polimerlanishda xosil bulayotgan polimerii tuzilishi monomer tuzilishi va uning polimerlanish sharoiti bilan aniklanadi. Ammo zvenolarini joylashish rostlangan polimerii radikal polimerlanish bilan olib bulishi qiyin.


Shunday kilib, zanjir usishi makroradikalni aktiv markazini monomerni π -bogi bilan tasirlashishi bilan boradi. Natijada yangi uglerod - uglerod bog xosil buladi. Juftlanmagan elektron esa birikkan monomerning oxirgi uglerodiga kuchadi. Tartibli tuzilishga ega bulgan polimerii radikal polimerlanish bilan olish mushkuldir.

Zanjir uzilishi. Polimerlanish jarayoning yakuniy elementar boskichidir. Zanjir uzilishi usaetgan ikkita makroradikalning to'qnashishi xisobiga sodir buladi. Bu reaksiya butun polimerlanish jarayonida ketadi, lekin sistema kovushkokligi kichik bulgan boshlangich etaplari uchun eng xarakterlidir. Zanjir ushshshi xisobiga xar uzunlikdagi makromolekulalar xosil buladi. Zanjir uzilishi reaksiyasining tezligi zanjir usishi reaksiyasining tezligidan ancha yukori bulib, uning aktivlanish energiyasining kiymati nolga yakindir. Zanjir uzilishi

a) rekombinatsiya xisobiga




б) диспропорционирование хисобига



sodir buladi.

Polimerlanishda zanjirni uzatish reaksiyasi kuzatiladi.



Kinetik zanjirni uzatish reaksiyasi deb, radikalni noaktiv molekula bilan reaksiyaga kirishib, noaktiv makromolekula, noaktiv molekuladan esa kinetik zanjirni davom ettirish kobiliyatiga ega radikal xosil bulish reaksiyasiga aytiladi.

Agar zanjirni uzatilishi reaksiyasi natijasida zanjirni usishiga olib kelmaydigan maxsulot xosil bulsa, u xolda AN ingibitor deb ataladi.



bu erda Z - ingibitor molekulasi

Ingibitorlar sifatida aromatik aminlar, aromatik nitrobirikmalar, xinonlar va bir biri bilan reaksiyaga kirishmaydigan, ammo aktiv radikallar bilan disproportsialanish, rekombinatsiya reaksiyalarga kirishadigan turgun erkin radikallar ishlatiladi, ingibitorlar monomerlarni, tarkibida kush bogi bor oligomerlarni saqlash, tashish jaraenida uz-uzidan polimerlanishini oldini olish maqsadida qo'llaniladilar. Ayrim xollarda ingibitorlar monomerlar polimerlanish tezligini kamaytirish maqsadida xam ishlatiladilar. Bu xolda ulashi sekinlatuvchilar deb atashadi. Yngibitorlar va ee-kinlatuvchilarsh ta'siri ... rasmda yakkol kursatilgan

Radikal polimerlanish kinetikasi

Kinetika bu kimyoviy reaksiyalar, jaraenlar tezligi, unga ta'sir kiluvchi omillar xakidagi ta'limotdir. Reaksiyaning (kinetik konukiyatlarini bilish, reaksiya tezligiga ta'sir qiuvchi turli omshsharni aniklash natijaviy maxsulotni olish shart-sharoitlarini mukobillashtirish imkonini beradi.

Radikal polimerlanish tezligi v ni monomer kontsentratsiyasi $[M]$ va initsiator kontsentratsiyasi $[I]$ bilan boglovchi tenglamani kuyidagi ikkita farazni kabul qilib xosil kilish mumkin:

1. Statsionar xolat printsipini, ya'ni polimerlanish boshlanishi bilan radikallar kontsentratsiyasi $[R]$ tezlikda doimiy kiymatga ega bulib koladi va keyinchalik uzgarmaydi;

2. Radikallarni reaksion aktivlik polimerlanish darajasiga boglik emas (Flori printsipi)

Initsirlash boskichining tezligi kuyidshgi tenglama orkali topiladi:

$$V_{in} = k_{in}[I]$$

3anjir usishi boskichining tezligi kuyidagiga teng

$$v_p = k_p [M] [R \cdot]$$

Zanjirni uzilish boskichining tezligi

$$v_{y3} = k_{y3} [R\cdot]^2$$

Statsionar xolatda $[R] = \text{const}$ $v_{in} = v_{uz}$, $k_{in}[I] = k_{uz}[R]^2$. Bu ifodadan

$$[R\cdot] = \frac{\sqrt{k_{in}}}{\sqrt{k_{y3}}} \sqrt{[I]}$$

Polimerlanish tezligi zanjir usishi boskichining tezligiga teng. U xolda

$$V = - \frac{dM}{dt} = k_p [M] [R\cdot] = \frac{k_p (k_{in})^{1/2}}{(k_{y3})^{1/2}} [M] [I]^{1/2} \quad (*)$$

Xosil kilingan ifodadan kurinadiki, radikal polimerlanishning tezligi kvadrat iddiz ostidagi initsiator kontsetratsiyasiga, vonomer kontsentratsiyasiga proportsianaldir. Ortacha polimerlanish darajasi material zanjirni usish va uzilish boskichlarining tezliklari nisbatiga teng:

$$\frac{1}{\bar{P}} = \frac{k_{y3} [R\cdot]}{k_p [M]} + \frac{k_{in} [I]}{k_p [M]} + \frac{k_s [S]}{k_p [M]} + \frac{k_m}{k_p}$$

$$v_p = k_p [M] [R\cdot] \text{ dan } [R\cdot] = \frac{v_p}{k_p [M]}; \quad \frac{k_{in}}{k_p} = C_{in}; \quad \frac{k_s}{k_p} = C_s; \quad \frac{k_m}{k_p} = C_m$$

bu erda S_{in} , S_s , C_m - initsiatorga, erituvchiga, monomerga zanjir uzatilishining nisbiy konstantalari. Oxirgi ezilganlarni xisobga olib polimerlanish darajasini xisoblash tenglamasi quyidagi kurinishga keladi:

$$\frac{1}{\bar{P}} = \frac{k_{yz} V}{k_p^2 [M]^2} + C_{IH} \frac{[I]}{[M]} + C_s \frac{[S]}{[M]} + C_m \quad (**)$$

(**) radikal polimerlanishning zasosiy tenglamasi bulib, zanjir uzatilishi konstantalarini, k_{uz}/k_r^2 va initsirlash samaradorligini topish uchun qo'llaniladi. Polimerlayishni olib borish shart-sharoitiga karab bu tenglama soddalashadi. Masalan, massada polimerlanish, initsiator zanjir uzatilish reaksiyasida katnashmaydigan xol uchun (**) tenglama kuyidagi kurinishga keladi:

$$\frac{1}{\bar{P}} = \frac{k_{yz} V}{k_p^2 [M]^2} + C_m$$

k_{uz}/k_r^2 va S_m larni topish uchun initsiatorning turli konsentratsiyalarida polimerlanishni olib, $1/\bar{P} - V/[M]^2$ bogliklik kuruladi. Olingan tugri chizikning abtissa ukiga nisbatan xosil kilgan burchagining tangensi tezliklar nisbatini, ordinata ukini kesgan masofasi esa zanjir uzatish konstantasi kiymatini beradi.

Radikal podimerlanishga turli faktorlarning ta'siri

Polimerlanishni olib borish temperaturasini ortishi jaraen tezligini ortashiga va polimerlanish darajasini kamayishiga olib keladi.

Jaraenni odshb borish bosimining ortishi polimerlanish tezligini xam, polimerlanish darajasini xam ortishiga olib keladi. Masalan, bosimni atmosfera bosimiga nisbatan 1000 marta ortirish stirolni initsiator ishtirokidagi polimerlanish tezligini 10 marta, polimerlanish darajasshi esa ikki marta usishiga olib keladi.

Tayanch so'z va iboralar

Radikal polimerlanish, iyushchirlash, biradikal, termik initsirlash, radiatsion initsirlash, fotokimeviy initsirlash, kimeviy initsirlash, erkin radikallar, xosil bulishi, benzoil peroksidi, diazobirikmalar, oksidlanish-kaytarilish sistemasi, zanjir usishi, zanjir uzilishi, ingibitorlar, zanjir uzatilishi,

radikal polimerlanish kinetikasi, radikal polimerlanish ta'sir kiluvchi omillar.

Kaytarish uchun savollar

1. Radikal polimerlanish nima?
2. Aktiv markazni xosil kilishni kanday usuullarini bilasiz?
3. Radikal polimerlanishda zanjir usishiga tavsif bering.
4. Zanjir uzilishi kanday sodir quladi?
5. Ingibitorlar nima va ular kanday vazifa bajaradi?
6. Zanjir uzatilishi reaksiyasi xakida nima bilasiz?
7. Radikal polimerlanish tezligi kanday faktorlarga boglik?
8. Radikal polimerlanishga ta'sir kiluvchi omillarni tavsiflang.
9. Termik initsirlash, fotokimyoviy initsirlash, radiatsion initsirlash xakida suzlab bering.
10. Radikal polimerlanishda faol markaz xosil qiluvchilar turkumiga qanday moddalar kiradi?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V. A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M.A., Eriev O., Edgorov E, Polimerlar fizikasi va kimyosi. Toshkeng, Ukituvchi, 1993.

Kushimchalari

1. Strepixeev A.A.. Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M., Ximiya, 1976, 437 s.
2. Oudian Dj. Osnovi ximii poshmerov .M.Mir. 1974, 614 s.
3. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V. A. M., Ximiya, 1985, 224 S.

4. Praktikum po ximii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova
V.F., M., Ximiya, 1978.

Ma'ruza 4

ION POLIMERLANISH

Bu turdagi polimerlanishda aktiv markaz vazifasini ushetgan zanjir uchidagi ionlar bajaradi va u karama-karshi ion bilan ion juftini xosil qiladi. Kation va anion polimerlanishni farqlashadi. Ion polimerlanishga $S = S$, $S = O$, $S \equiv N$ boglar saklovchi birikmalar va geteroxalkali birikmalar uchraydi.

Kation polimerlanish. Kation polimerlanishda usayotgan zanjir musbat zaryadlangan buladi. Kation polimerlanish katalizator ishtirokida boradi. va katalizator sifatida Lyuis kislotalari, ya'ni elektronoaktseptor bshikmalar ishlatiladi. Keng tarkalgan katalizatorlar quyidagilardir:

1) Proton kislotalari: NSO_4 , N_2SO_4 , N_3RO_4 , NSl va boshkalar;

2) Aproton kislotalar: Lyuis kislotalari, Fridel'-Krafts katalizatorlari, metallarning koordinatsion tuyinmagan tuzlari guruxiga mansub birikmalar – MeX_n (x - galogen). Masalan, VF_3 , $AlSl_3$, $SnSl_4$, $TiSl_4$, $FeSl_3$ va boshkalar.


Aproton kislotalarni soka'galizatorlar - proton donorlari ishtirokida katalitik samaradorliga oshadi.

Kation mexanizm buyicha elektsh) nodonor urinbosarlar saklovchi etilen xosilalari, masalan karbonil guruxi saklovchi vinil monomerlari, akrilonitril, izobutilen, trioksan, tetragidrofuran va shu kabilar.


Kation polimerlanishga misol tarikasida tuyinmagan monomerlarni Lyuis kislotalari ishtirokida polimerlanishini kurib chikaylik:

Aktiv markazning xosil bulishi


katalizator va sokatalizator kompleksining xosil bulishi:




Kompleks monomer molekulasini bilan ta'sirlashadi:




Zanjir usishi. Monomerni makrokationga birikish xisobiga sodir buladi yoki boshkacha kilib aytganda monomer zanjir oxirida joylashgan ion adfti orasiga birikadi.



Zanjir uzilishi. Aksariyat xollarda monomolekulyar buladi. Bunda vodorod kationini ichki molekulyar uzatilishi xisobiga aktiv markazni dezaktivatsiyasi kuzatiladi.



Zanjir uzatilishi» Kation pojmerlanishda monomerga zanjir uzatilishi muxim rol uynaydi. Sabab u polimerii mumkin bulgan molekulyar massasi kiymatini belgilaydi. Bu reaksiya molekulalararo vodorod kationini uzatilishi xisobigauboradi.




Kation polimerlanishning tezligi monomer va katalizator kontsentratsiy lariga proportsionaldiir.


Anion polimerlanish. Bu turdagi polimerlanishda usaetgan zanjir uz oxirida manfiy zaryad tutadi. Anion polimerlanishning katalizatorlari sifatida Lyuis asoslari, ya'ni elektronodonor birikmalar, masalan ishkoriy metallar, davriy sistemaning I va II guruxlari metallarining xosilalari (alkillar, arillar, algolyatlar,

amidlar va oshkalar) ishlatiladi. Anion polimerlanishga elektronoak-tseptor urinbobarlar saklovchi tuyinmagan monomerlar, masalan, akrilatlar $\text{SN}_2=\text{SN}-\text{SOOR}$ va sopryajenie eki ta'sirni kush bog orkali uzatish energiyasi yukori bulgan monomerlar (stiról, dienlar) moyilrok buladilar. Bu birikmalarda elektronoaktseptor urinbosarlar kuy bog elektron bulutini siyraklashishiga sababchi buladilar.

Anion polimerladish kuyidagicha boradi:




2. I gurux metallari va I, II gurux metallorganik birikmalar




Aktiv markazni xosil bulishi


Zanjir usishi. Monomerni makroionga xetma-ket birikishi xisobiga sodir buladi.



Zanjir uzilishi. Gidrid-ionni karama- karshi ionga eki monomer molekulyasiga utishi bilan sodir buladi.



Yukorida keltirilgan misol uchun zanjir uzilishi gidrid-ionni erituvchi molekulasidan usaetgan makroionga utishi xisobiga sodir buladi.



Anion polimerlanishning printsipl xususiyati shundaki, 6u usulda "tirik polimerlar" olish mumkin. ya'ni polimerlanishni zanjir uzilishsiz va uzatilishsiz olib borish mumkin. Agar bu sistemaga yana monomer kushilsa polimerlanish tiklanadi.

Anion polimerlanish usuli bilan sanoat mikiesida kauchuklar, poliamidlar, poliformaldegshch, polietilenoksid olinadi.


ION-KOORDINATSION POLIMERLANISH

Ion-koordinatsion polimerlanishning oddiy ion polimerlanishdan farki shundaki. bu polimerlanishda aktiv markaz xosil bulishida monomer molekulasi katalit sistema ishtirokida eki katalizator sirtida ma'lum bir fazoviy xolatni egajaydi. Kullanilaetgan katalizator, monomer tabiatiga karab ion-koordinatsion polimerlanishning anion- koordinatsion polimerlanish va Tsigler-Natta katalizatorlari ishtirokidagi polimerlanish turlari mavjud.

Dienlarning anion-koordinatsion polimerlanishi. Bu turdagi polimerlanishni izopren monomeri misolida kurib chikaylik.

1 2 3 4

Izopren $\text{SN}_2=\text{S}(\text{SN}_3)-\text{SN}=\text{SN}_2$ polimerlanish sharoitiga karab kuyidagi turdagi izomer zvenolarni xosil kilishi mumkin:



1.4 - trans,


1.4 - tsis

1 . y-birikish

3,4-birikish

Bu turdagi izomerlarni xosil bulishi katalizator tabiatiga boglikdir.


Masalan, quyidagi turdagi orientatsiyalanish kuzatilganda 1,4-tsiz izomerlar xosil bulishi kursatilgan:



Bu katalitik sistemaga elektronodonor erituvchilarni kushish, masalan, efir, tetragidrofuran, alkilaminlar va shu kabilar S – Li bogini kuchli (xatto ionlarga parchalanish darajasigacha) kutblanishiga olib keladi.



Bu katalitik sistemada izopren quyidagicha koordinatsiyalanadi




Bu aktiv markazga monomer 1- uglerod atomiga eki 2- uglerod atomiga birikishi mumkin. Natijada mos xolda 1.4 - trans eki 3,4 -birikish izomerlari xosil buladi.

Tsigler- Natta katalizatorlarida polimerlanish.


Bu turdagi katalizatorlarga I-II guruh elementlarining organik birikmalarini IV-VIII guruh uzgaruvchan valentli elementlari tuzlari bilan xosil

kilgan katalitik sistemalar kiradi. gomogen va geterogen Tsigler-Natta katalizatorlari mavjud. Geterogen katalizatorlarda asosan izotaktik polimerlar olinadi. Gomogen ktalizatorlar ishtirokida esa bundan tashkari sindiotaktik polimerlar xam sintez kilish mumkin.

Eng keng kullaniladagan katalitik sistemalardan biri $TiCl_3 + AlR_3$ dir. Bu birikmalar kooshinatsion kompleks xosil kiladilar va bu kompleksda Ti atomi alkil guruxi bilan ta'sirlashib kisman musbat zaryadga, alkil radikali eca kisman manfiy zaryadga ega buladi:



Initsirlash jaraenida monomer musbat kutblangan Ti atomida koordinatsiyalanadi va u bilan π - kompleks xosil kiladi. Bu kompleks keyinchalik σ -komlpeksga aylanadi. Bunday shakl uzgarishlar katijasida monomer T1 - S bogi buyicha kompleks tarkibiga kiradi.



Zanjir usishi xam xuddi shunday mexanizm buyicha sodir buladi va xar bir birikishdan sung aktiv markaz tiklanadi. Tsigler-Natta katalizatorlari ishtirokida polimerlanishda xam zanjir uzilishi anion polimerlanishda ketadigan reaksiyalar shchbi sodir buladi. Masalan, gidrid ionni monomerga eki qarshi ionga uzatish xisobiga zanjir uziladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ion polimerlanish radikal polimerlanishdan fariini bayon kiling.
2. Kation polimerlanish nima?
3. Kation polimerlanishda farl markaz xosil ilish uchun ianday moddyalar ishlatiladi?
4. Kation polimerlanish mexanizmi kanday boskichlardan iborat?
5. Kation polimerlanish tezligiga anday omillar ta'sir

kursatadi?

6. Anion polimerlanish nima?
7. Anion polimerlanishda faol markaz xosil qilish uchun kanday moddalar ishlatiladi?
8. Anion polimerlanish mexanizmi kanday bosqichlardan iborat?
9. Ion – koordinatsion polimerlanishni bayon kiling.
10. Tsigler-Natta katalizatorlari ishtirokida polimerlanish usuli bilan kanday polimerlar sintez qilish mumkin?

Foydalanish uchun adabiyotlar

Asosiylari

1. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F., Kashaeva V. N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
2. Askarov M.A., Ayxodjaev B.O., Alovitdinov A. B. Polimerlar kimyosi, Toshkent, Ukituvchi, 1988 i.

Kushimchalari


1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M., Ximiya, 1976, 437 s.
2. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V. A. M. Ximiya, 1985, 224 S.
3. Praktikum po ztsmii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F.. M., Ximiya, 1978.

Ma'ruza 5

SOPOLIMERLANISH

Ikki yoki undan ortik monomerlarni birgalikda polimerlanishi sopolimerlanish deyiladi. Sopolimerlanish kup tonnajli polimerlar-ni xossalarni modifikatsiya qilishning kulay va samarali uslubi bulgani uchun amalda keng kulaniladi.

Sopolimerlanishda sopolimer tarkibi monomerlar aralashmasining tarkibi bshshn moe kelmaydi. Ikki monomer sopolimerlanganda zanjir usishi kuyidagi reaksiyalar xisobiga borishi mumkin:



бу ерда $[M_1], [M_2]$ - M_1, M_2 мономерларнинг концентрацияси:
 $[m^*_1], [m^*_2]$ - M_1, M_2 мономерларининг звенолари билан тугаган
 актив занжирларнинг концентрацияси

Sopolimer tarkibidagi monomerlarning soniyaviy yoki joriy kontsentratsiyalari va dastlabki monomerlar aralashmasidagi monomerlar kontsentratsiyalarni boglovchi tenglama tarkibning differentsial tenglamasi deyiladi va u kuyidagi kurinishga ega;


~~$$\frac{d[M_1]}{d[M_2]} = \frac{[M_1]}{[M_2]} \cdot \frac{r_1 [M_1] + [M_2]}{r_2 [M_2] + [M_1]} \quad (*)$$~~

bu tenglamada

$$r_1 = \frac{k_{11}}{k_{12}}; \quad r_2 = \frac{k_{22}}{k_{21}} - \text{sopolimerlanish konstantalari eki monomerlarning niobiy aktivlik konstantasi.}$$

Tarkib tenglamasining grafik shakli

r_1, r_2 konstantalari belgilab beruvchi sopolimerlarning tarkib egri chizigidir.



m_1, M_1 - M_1 monomerning sopoli mer tarkibidagi va monomerlar aralashmasidagi molyar ulushi

- 1 - $r_1 = r_2 = 1$; 2 - $r_1 > 1; r_2 < 1$
- 3 - $r_1 < 1; r_2 < 1$; 4 - $r_1 < 1; r_2 > 1$
- 5 - $r_1 \rightarrow 0; r_2 \rightarrow 0$; 6 - $r_1 \rightarrow 0; r_2 < 1$
- 7 - $r_1 \rightarrow 0; r_2 > 1$

Keltirilgan tarkiblar egri chizigi quyidagi xollarga mos keladi:

1) $r_1 = r_2 = 1$ (1-egri chizik) - sopolimer tarkibi monomerlar aralashmasining tarkibiga teng, sopolimer zanjirida zvenolarning taksimlanishi statistik. Bunda sopolimerlanish ideal sopolimerlanish deyiladi.

2) $r_1 > 1; r_2 < 1$ (2-egri chizik), $r_1 < 1; r_2 > 1$ (4-egri chizik) - monomerlar aralashmasining barcha nisbatarida sopolimer aktivrok monomer zvenolari bilan boyigan. Zvenolashi zanjirda taksimlanishi statistik.

3) $r_1 \rightarrow 0; r_2 \rightarrow 0$ (5-egri chizik)- sopolimer zanjirida monomer zvenolarining muntazam ketma-ketligi kuzatilalb, Monomerlar aralashmasining istalgan tarkibida monomer koldiklarining nisbati 1:1 tarkibli sopolimer xosil buladi.

4) $r_1 < 1$; $r_2 < 1$ (3-egri chizik) va) $r_1 \rightarrow 0$; $r_2 < 1$ (6-egri chizik)-sopolimer tarkibida monomer zvenolarini ketma-ket kelishi kuzatiladi, ammo ketma-ket ulanishlarda tartib bulmaydi.

Kurib utilgan barcha xollarda $r_1 \cdot r_2 \leq 1$ /

Monomerlarni konversiya darajasi ortishi bilan sopolimer tarkibi doimo uzgarib turadi. Bunga sabab sopolimerlanish davomida monomerlar aralashmasida aktivrok monomer mikdori kamayib boradi. Konversiya darajasi yukori kilib olingan sopolimerlar turli tarkibli fraktsiyalarni saklaydi, ya'ni kompozitsion turli-tumanlikka ega. Odatda bu xolat sopolimerlar xossalariga salbiy ta'sir kursatadi.

SANOATDA POLIMERLANISHNI OLIB BORISH USULLARI

Sanoatda polimerizatsiyalanish yuli bilan polimerlar kuyidagi usullarda olinadi:

Massada (blokda) polimerlanish. Bu usulda polimerlanish initsiator ishtirokida olib bornladi. Initsiatorlar sifatida organik peroksidlar ishlatiladi. Odatda bu usulda polimerlanishda tayer polimer reaksiya olib borilgan vdish shaklini oladi. Jaraen borishi davomida xosil bulgan polimer mikdorining ortishi xisobiga sistema kovushkokligi sekin-asta ortib ooradi. Bu uz navbatida reaksiya natijasida ajralib chikkan issiklikga tashki muxitga tarkatishini kiyinlashtiradi. Bunda zanjir reaksiyaining uzilishining extimolligi ortishi xisobiga tayer polimerning molekulyar massasi kichik va molekulyar massa buyicha taksimlanishi esa keng buladi.

Bu usul bilan polistirol, polimetilmetakrilat kabi polimerlar ilinadi.

Kattik fazada polimerlanish. Polimerlanish monomerning suyuklanish temperaturasidan past temperaturada olib boriladi. Bu usul polimerlanishni initsirlash kiyinligi tufayli keng kullanilmaydi.

Eritmada polimerlanish. Bu polimerlanish ion mexanizmi buyicha polimerlar sintez kilishda keng kullaniladi. Bu usudtsa ikkita xol bulishi mumkin: monomer va tayer polimer erituvchida eriydi va monomer erituvchida

eriydi, tayyor polimer chukmaga tushadi. Birinchi usudtsa polimerning eritmasi xosil bulib, u lok deyiladi va bu polimerlanish usuli lok polimerlanish deb xam ataladi. Ikkinchi xolda polimer chukmaga tushadi, polimerlanish geterogen polimerlanish deyiladi. Tayer polimer chukmaga tushganligi tufayli oson ajratib olinadi. Eritmada polimerlanishda reaksiya natijasida ajralib chikkan issiklikni tashki muxitga tarkalishi engilashadi. Bundan tashkari reaksion muxitni aralashtirish osonlashadi, eritmani texnologii boskichlarga etkazib berish osonlashadi. Bundan tashkari polimerii molekulyar massasini va molekulyar massaviy taksimlanishini rostlash imkoni paydo buladi.

Emulsiyada polimerlanish. Eng keng tarkalgan polimerlanishini olib borish usuli bulib, sanoatda ishlab chikarilaetgan aksariyat polimerlar shu usulda olinadi. Emulsiyada polimerlanish olib borish sistemasi dispertsion muxit sifatida suvdan. monomerdan, initsiatordan, emulgatoridan va boshka kushimchalardan, masalan, reaksion muxitni rN ni rostlovchi modalardan iborat buladi. Emulgator, monomer, initsiator turiga karab sistemada polimerlanish monomer - suv sirt chegarasida, monomer saklovchi emulgator mitsellalarida, ayrim xollarda esa monomerni suvdagi chin eritmasida ketishi mumkin. Xosil bulgan polimerii yukori disperslangan suspenziyasini (lateksni) buzib tayer polimer ajratib olinadi.

Bu usulning afzalliklari: reaksion muxit sifatida zararsiz bulgan suvni kullanilishi, moddalarni aralashtirishni osonligi, ajralib chikaetgan issiklikni atrof muxitga tarkatish engillashadi, reaksiya tezligini rostlash. makromolekula strukturasini, molekulyar massasini rostlash osonlashadi.

Bu usulda polivinilxlorid, polistirol, polimetilmetakrilat, polkvinilatsetat, poliakrilonitril, bu monomerlarni butadien bilan bipolimerlari, polixloropren kabi polimerlar sintez kilinadi.

Ma'ruza 6


POLIKONDENSATsIYaLASH

Polikondensatsiya polimerlarni sintez kilishni keng tarkalgan uslubidir.

Yukori molekulyar birikmalarni polifunksional birikmalarni funksional guruxlari reaksiyalari xisobiga xosil bulish reaksiyami

POLIKONDENSATSIYA deyiladi. Polikondensatsiya kuyi molekulyar birikmalar ajralib chikishi bilan boradi.

Polikondensatsiya reaksiyasi xisobiga yukori molekulyar birikmalar xosil bulishining asosiy sharti bu dastlabki monomerlarning tarkibida eng kamida ikkita funktsional guruxining mavjudligidir. Aksariyat xolatlarda polikondensatsiyalanish xisobiga yukori molekulyar birikmalar (YuMB) xosil bulish reaksiyalari kaytardir.



Reaksiyaning muvozanat konstantasi K_m tugri reaksiya (efir xosil bulish) tezlik konstantasini teokari reaksiya (gidroliz) tezlik konstantasiga nisbatiga teng.

$$K_m = \frac{k_p}{k_r}$$


Muvozanat konstantasining kiymatiga karab jaytar ($K_m < 10$) va qaytmas ($K_m > 10^3$) polikondensatsiyalarni farqlashadi.


Polikondensatsiyalanishni xarakterli belgilaridan biri polimerii molekulya massasining bir tekis ortib borishidir bulib, oralik birikmalar reaksiyaning istalgan boskichida reaksiye muxitdan ajra-tib olinishi mumkin.

Poshchkondensatsiyalanishda ikkita turli funktsional guruxlarni saklovchi shr turdagi monomerlar katnashsa bunday polikondensatsiya-lanish gomopolikondensatsiya deyiladi. Agar polimer xar biri bir turli funktsional guruxlari tutuvchi, ammo turli sinflarga oid monomerlardan olinsa, polikondensatsiyalanish geteropolikondensatsiya deyiladi.

Xosil bulaetgan polimer zanjirining konfiguratsiyasiga karab chizikli, tursimon xalkalanish bilan polimer xosil kiluvchi doli-kondensatsiyalanishlarumavjud. Tursimon polimer xosil kiluchi poli-kondensatsiyalanishda uch va undan ortik funktsional gurux saklovchi


monomerlar ishtirok etadilar. Chizikli polimer xosil kiluvchi polikondensatsiyada molekulyasida ikkita, ya'ni bifunktsional monomerlar ishtirok etadi. masalan adipin kislotasi bilan etilenglikolning reaksiyasi (yukorida keltirilgan reaksiyaga karalsin). Xalkalanish bilan polimer xosil kiluvchi polikondensatsiya ikki boskichda boradi, Birinchi boskichda chizikli polikondensatsiya ketadi, ikkinchisida esa xalkalanish sodir buladi. Masalan, piromellit angidrini 4,4'-diaminodifenil efiri bilan reaksiyasi:






Polikondensatsiya usuli bilan quyidagi keng tarkalgan polimerlar sintez kilinadilar:


Tuyinmagan murakkab poliefirlar




Tuyingan murakkab poliefirlar




Поликарбонатлар



Полиамидлар



Полиуретанлар



Turlangan polimerlarni polikondensatsiya uslubi bilan sintez kilishda

shkromolekulalarni choklanishi, ya'ni gel xosil bulishi. reakodya tugaganligining kaday darajasida sodir bulyshini bilish muxim axamiyatga ega. Gel xosil bulishdagi reaksiya tugallanganlik darajasi Korozers tenglamasidan topiladi.

$$X_{kp} = \frac{2}{f_{ypt}}$$

bu erda, X_{kr} - reaksiya tugallanganligining kritik darajasi:

$f_{o'rt}$ - bir molekula ga tugri kelgan funktsional guruxdar soni, ya'ni urtacha funktsionallik.

Misol. Mos ravishcha funktsionalligi 3 va 2 bulgan glitserinning va ftal kislotasining polikondensatsiyasi natijasida tursimon polimer xosil buladi. Funktsional guruxlarning ekvimolyar mikdorlarida reaksiyada 2 mol glitserin va 3 mol ftal kislotasi katnashishi kerak. Demakki, besh molekula reagentlarga 12 ta funktsional gurux turi kelayapti. U xolda $f_{o'rt} = 12 / 5 = 2,4$ va $X_{kr} = 2 / 2,4 = 0,833$

Podikondensashmdanishning kinetikasi. Reaksiya tezligi monomerlarning funktsional guruxini sarfi – $d[M]/dt$ orkali aniklanadi. Polikondensatsiyaning tugallanganligi, ya'ni reakshchyaning tugallanganlik darajasi kuyidagicha topiladi:

$$X = \frac{[M_0] - [M]}{[M_0]}$$

bu erda $[M_0]$, $[M]$ – funktsional guruxlarning dastlabki va joriy kontsentratsiyalari.

Reagentlarning ekvimolyar mikdorlarining aralashmasi uchun kuyidagi tenglama xaklidir:

$$-\frac{d[M]}{dt} = k_{yc} [M]^2$$

Bu tenglamani integrallash reaksiyani tugallanganlik darajasini vaktdan bog'lik tenglamasiga olib keladi

$$[M]_{k_{yc} t} = \frac{x}{1 - x} \quad (*)$$

Agar polikondensatsiyada kislota, masalan adipin kislotasini glikollar bilan reaksiyasida, katnashsa, u xam monomer, xam katalizator vazifasini utaydi. Bu xol uchun reaksiya tezligi quyidagi tenglamadan topiladi:

$$-\frac{d[M]}{dt} = k_{yc} [M]^3$$

Kaytar polikondensatsiyalanishda polimerlanish darajasi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\bar{p} = \sqrt{K_m / [S]}$$


bu erda [S] - kuyi molekulyar birikmaning muvozanat konsentratsiyasi.

Bu tenglamadan kurinadiki, kaytar polikondensatsiyalanishda yukori molekulyar polimer xosil bulishi uchun kuyi molekulyar birikmani reaksion muxitdan iloji boricha tula chikazib tashlash kerak.

Polimerlanish daranasi va reaksiyani tugallanganlik darajasi orasidagi bog'liklik Korozers tenglamasi bilan ifodalanadi.

$$\bar{p} = \frac{1}{1 - x} \quad (**)$$

Bu bog'liklik grafik kurinishi quyidagichadir



Rasmdan va formuladan kurinadiki, 50% funktsional guruxlar reaksiyaga kirishgach, polimerlanish darajasi 2 ga tekg buladi, $x=0,90$ bulsa $r=0$ va fakat $x=0,99$ bulsa yukori molekulyar birikma xosil buladi. (*) va (**) tenglamalardan kuyidagi tenglama kelib chikadai

$$\bar{p} = k_{yc} [M_0] t$$

Bu tenglamadan kurinadiki, polimerlanish darajasi polikondensatsiya vaktiga tugri proportsionaldir.

Ikkita turli sinflarga mansub monomerlarni polikondensatsiyalanishida polimerlanish darajasiga funktsional guruxlarni noekvivalentligi salbiy ta'sir kursatadi. Funktsional guruxlarning noekvivalentligi funktsional guruxlar kontsentratsiyalarining nisbatiga tengdir - $[M_1][M_2] \leq 1$. Reaksiyaning tugallangalik darajasi birga yakin bulgan xol uchun

$$\bar{p} = \frac{1 + [M_1][M_2]}{1 - [M_1][M_2]} \quad (***)$$

$[M_1][M_2] \rightarrow 1$ $\bar{p} \rightarrow \infty$ buladi. Bir monomerni mikdori 1% oshib ketsa $r=200$. Bu qoida funktsional guruxlarning noekvivalentlik koidasi deb ataladi. Polikondensatsiya usuli bilan olinayotgan polimerlarning molekulyar massasi monofunktsional kushimchalarning borligiga juda ta'sirchandir. Bu bogliklik

quyidagi ko'rinishga ega $r=1/N$ (monofunksional birikmalarning molyar ulushi). Bu tenglikdan kurinadiki, monofunksional birikmalar reaksiyon muxitdan doimo chiqarib turilishi kerak.

Tayanch suz va iboralar

Sopolimerlanish, sopolimerlanish konstantalari, sopolimer tarkibi, polimerlanish massada, polimerlanish eritmada, polimerlanish emulsiyada, polimerlanish sustsenziyada, polikondensatsiyanish, turlari, reaksiya yunalishi. Korozers tenglamasi, funksional guruxlar noekvivalentligi koidasi, massada polikondensatsiya, eritmada polikondensatsiya, fazalar chegarasida polikondensatsiya.

Kaytarish uchun savollar

1. Sopolimerlanish reaksiyalari kanday reaksiyalar va ularni kulanilish imkoniyatlari kanday?
2. Sopolimeri kimeviy tarkibi va monomerlar aralashmasi tarkibi urtasidagi bogliklik kanday?
3. Sopolimerlanish konstantalari nima?
4. Polikondensatsiya nima va yukori molekulyar birikmalar xosil bulishining asosiy sharti kanday?
5. Polikondensatsiyanish turlarini baen kiling.
6. Polikondensatsiya usuli bilan kanday polimerlar sintez kilinadi?
7. Polikondensatsiya reaksiyalarini qanday konuniyatlarini bilasiz?
8. Sanoatda polimerlanishni olib borish usullarini bayon qiling.
9. Massada, qattiq fazada polimerlar olish usullarini kamchiliklari va afzalliklari xaqida so'zlab bering.
10. Eritmada, emul'siyada polimerlanish usullarini kamchiliklari va afzalliklari xaqida suzlab bering.

Foydalanish uchun adabiyotlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Andrianova G. P., Shestakova I. S., Kukidi D.A., Kasyanova A.A. Ximiya i fizika visokomolekulyarnix soedineniy v proizvodstve isskustvennoy koji, koji i mexa. M.: Legpromizdat, 1987, 463 s.
3. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F. .Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya jola, 1988, 151 s.
4. Askarov M.A., Ayxodjaev B.O., Alovitdinov A. B. Polimerlar kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1988.

Kushimchalari


1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyar-nix soedineniy. M., Ximiya, 197b, 437 s.
2. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V.A. M.: Ximiya. 1985, 224 s.
3. Praktikum po ximii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F., I, Ximiya. 1978.

Ma'ruza 7


POLIMERLARNING KIMYOVIY O'ZGARISHLARI

POLIMERANALOGIK UZGARISHLAR

Xozirgi kunga kelib yaratilgan polimer materiallarning kup turliligi sanoatda ishlab chivarilaetgan oz sonli polimerlarni polimeranalogik uzgartirishlar kimyosining rivojlanishi bilan boglik. Masalan, polivinil spirti fakat polimeranalogik uzgarishlar tufayligina olinishi mumkin:




Polimeranalogik uzparishlar sanaotda chikarilaetgan polimerlar xossasini yaxshilash uchun yoki ulardan yangi polimerlar olish uchun kullaniladi.




Polimeranalogik uzgarishlar ayrim kiyinchilik bilan qayta ishlanadigan polimerlarni engil kayta ishlanajgan xolga utkazish imkonini beradi. Masalan, suklanmalari orkali kayta ishlab bulmaydigan tsellyulozani kuyidagi uzgarishlar hisobiga qulay qayta ishlanadigan xolga keltirish mumkin:

oddiy efirlarini olish xisobiga



мураккаб эфирларини олиш хисобига



Ichki molekulyar xalkalanishni ham polimeranalogik o'zgarishlarga kiritisa buladi. Masalan, poliakrilonitrilni xalkalanishi:

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershev V. A. Ximiya i fizika polimerov. M.:Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M. Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M.A. Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi. Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevidkaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M.. Ximiya, 1976, 437 s.
2. Praktikum po ximii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F., M.: Ximiya, 1978.

MA'RUZA 8


POLIMERLARDAGI TURLI TUMANLIKLAR

Polimerlarni xosil bulishini statistik xarakteri xamda ularni sintez qilishda qo'shimcha reaksiyalarning mavjudligi sababli ular turli sondagi zvenolardan tashkil topgan makromolekulalar majmuidan iboratdir. Makromolekulalar turli uzunlikka va molekulyar massaga ega buladilar. Shu sababli polimerda molekulyar massa bo'yicha turli-tumanlik kuzatiladi, ya'ni u polidispersdir. Yukoridagilardan kelib chikib, polimerni molekulyar massasi

deganda uni o'rtacha qiymati tushiniladi. Shuni aytib o'tish kerakki, bir xil o'rtacha molekulyar massaga ega bo'lgan polimerlar polidisperslik bo'yicha farqlanadilar. Bunday sistemalar uchun molekulalar soni MST va molekulalar massasi MMT buyicha taksimlanish xosdir.

Integral va differentsial taksimlanish va ularga mos egri chiziqlar mavjuddir.

Integral taksimlanish egri chizigi bu molekulyar massa va polimerning shu eki shuning atrofida molekulyar massali barcha fraktsiyalarning integral ulushi urtasidagi bog'liklikdir.



Taksimlanishning differentsial egri chizigi fraktsiyalar shug'ul mol yoki massa ulushini molekulyar massaga bog'liqligidir. Fraktsiyalarning mol ulushini molekulyar massaga bog'likligi molekulalar soni buyicha taksimlanish (MST), massa ulushini molekulyar massaga bog'likligi molekulalar massasi bo'yicha taksimlanish (MMT) deyiladi.

Fraktsiyalarning mol ulushi quyidagiga teng:

$$\frac{1}{N_0} \frac{dN_m}{dM}$$

m_m – fraktsiyaning integral ulushi;

m_0 – umumiy massa,

$$0 < m/m_0 < 1$$

N_0 – molekulalarning umumiy soni


N – molekulyar massasi M ga teng bo'lgan molekulalar massasi.

Fraktsiyalarning massa ulushi quyidagiga teng:

$$\frac{1}{m_0} \frac{dm_m}{dM}$$

m_0 – polimerning umumiy massasi;

m_m – molekulyar masasi M ga teng bo'lgan polimer massasi.



Molekulalar soni va molekulyar massasi bo'yicha taksimlanishlar kuyidagi kurinishga ega:

Rasmdan kurinadiki MST va MMT egri chiziqlari bir-biriga mos tushmaydilar. MST polimerdagi kuyi molekulyar massali fraktsiya borligiga, MMT esa yukori

molekulyar massali fraktsiya mavjudligiga ta'sirchandır.

Egri chiziklardagi maksimumlar soniga qarab unimodal, bimodal va polimodal taksimlanishlarni farqlashadi

Molekulyar massa bo'yicha taksimlanishni xarakterlash uchun molekulyar massaning urtacha qiymatidan va taksimlanish kengligidan foydalanadilar.

Molekulalar soni buyicha o'rtacha molekulyar massani (sredne-chislovaya molekulyarnaya massa) M_n ni MST dan aniklashdi. M_n - taksimlanish egri chizigi bilan chegaralangan maydon o'irlik markazining abtsissadagi qiymatidir (A nukta):

$$\bar{M}_n = \sum_{i=1}^N n_i M_i = \frac{M_1 N_1}{N_1}$$

n_i - molekulyar massasi M ga teng makromolekulalarning i - fraktsiyasining mikdoriy ulushi $n_i = N_i / N_1$ - fraktsiyalar soni;

N_1 - molekulyar massasi M_1 ga eng bulgan molekulyar soni Molekulyar massasi yuqori bo'lgan polimerlar uchun yigindini integral bilan almashtirish mumkin:

$$\bar{M}_n = \int_0^{\infty} \rho_n(M) M dM$$

$\rho_n(M)$ - MST ning uzluksiz differentsial sonli funktsiyasi;

$\rho_n(M)dM$ - molekulyar massasi M dan $M + dM$ gacha oralikda yotgan molekulalarning sonli ulushi.

Xuddi shunday molekulalar massami bo'yicha urtacha molekulyar massa (srednemasovaya molekulyarnaya massa) $\bar{M}_w$ quyidagiga teng:

$$\bar{M}_w = \sum_{i=1}^N \omega_i M_i = \frac{\sum_{i=1}^N N_i M_i^2}{\sum_{i=1}^N N_i M_i}$$

$$\omega_i = \frac{N_i M_i}{\sum_{i=1}^N N_i M_i} - \text{molekulyar massasi } M_i \text{ bulgan makromolekulalarning } i\text{-fraktsiyasining massaviy ulushi.}$$

MMT ning uzluksizligi xoli uchun

$$\bar{M}_w = \frac{\int_0^{\infty} \rho_w(M) M^2 dM}{\int_0^{\infty} \rho_w(M) M dM}$$

$\rho_w(M) = \rho_n(M)M/\bar{M}_n$ ga teng bulgan taksimlanishning uzluksiz differentsial massaviy funktsiyasi;

$\rho_w(M)dM$ - molekulyar maosasi M dan $M + dM$ gacha oralikda yotgan molekulalarning massa ulushi

$\bar{M}_w/\bar{M}_n$ nisbat POLIDISPERSLIK deb ataladi. $\bar{M}_w/\bar{M}_n = 1$ polimer monodispers, $\bar{M}_w/\bar{M}_n > 1$ - polidispers bo'ladi. Sintetik va aksariyat tabiiy

polimerlar uchun $\bar{M}_w / \bar{M}_n = 2 - 2,5$ ga teng.

Misol. A polimer mavjud bulib, $K_m = 10^3$ ga teng bulgan 100 ta, $M = 10^4$ bulgan 200 ta va $M = 10^5$ bulgan 200 ta molekulalardan iborat. Molekulalar soni bo'yicha o'rtacha molekulyar massani, molekulalar massasi bo'yicha o'rtacha molekulyar massani va polidisperslikni xisoblang.

Echish:

$$\bar{M}_n = \frac{N_1 M_1}{N_1} = \frac{100 \cdot 10^3 + 200 \cdot 10^4 + 200 \cdot 10^5}{100 + 200 + 200} = 44000$$

$$\bar{M}_w = \frac{N_1 M_1^2}{N_1 M_1} = \frac{100 \cdot 10^6 + 200 \cdot 10^8 + 200 \cdot 10^{10}}{100 \cdot 10^3 + 200 \cdot 10^4 + 200 \cdot 10^5} = 91000$$

$$\bar{M}_w / \bar{M}_n = 91000 / 44000 = 2,07$$

MST va MMT taksimlanipshi polimerii fraktsiyalarga ajratish yo'li bilan aniklanash.

Molekullar soni va massasi bo'yicha o'rtacha molekulyar massalardan tashkari qovushkoklikni diffuziya koeffitsienlarini uzgarishidagi gidrodinamik xossalr tsuyicha urtacha molekulyar massalarni aniklash mumkin. Umumiy xolda bu bog'liklar kuyidagi kurinishga ega:

$$\bar{M}_q = \frac{\int_0^{\infty} \rho_n(M) M^q dM}{\int_0^{\infty} \rho_n(M) M^{q-1} dM}$$

$q = 1$ bo'lsa $\bar{M}_n$; $q=2$ bo'lsa $\bar{M}_w$; $q=3$ bo'lsa $\bar{M}_z$ va $q = 4$ bo'lsa $\bar{M}_{z+1}$ hosil buladi.

Odatda $\bar{M}_n < \bar{M}_w < \bar{M}_z < \bar{M}_{z+1}$

Tayanch suz va iboralar

Polimerlar, turli-tumanliklar, qo'shimcha reatsiyalar, polidisperslik, o'rtacha molekulyar massa, molekulalar soni bo'yicha taqsimlanish, molekulalar massasi bo'yicha taqsimlanish, integral taqsimlanish, differentsial takimlanish, molekulalar soni buyicha taksimlanish, molekulalar massasi buyicha taksimlanish, taksimlanish egri chizigi, molekulalar soni buyicha o'rtacha molekulyar massa, molekulalar massasi buyicha o'rtacha molekulyar massa, polidisperslik darajasi.

Qaytarish uchun savollar

1. Polimerliyuda turli-tumanliklar vujudga kelishning sababi nimada?
2. Polidisperslik buyicha farkanadigan sistemalar uchun kan-day turdagi taksimlanishlar xosdir?
3. Integral, differentsial taksimlanish nima?
4. Molekulyar massa buyicha turli-tumanliklarni kandy turlari mavjud?
5. Taksimlanish egri chizigi kandy kurinishga ega?
6. Molekulalar soni bo'yicha urtacha molekulyar massa kaysi formuladan topiladi?
7. Molekulalar massasi bo'yicha o'rtacha molekulyar massa qaysi formuladan topiladi?
8. Polidisperslik darajasi nima va u qanday xisoblanadi?
9. Polidisperslik qanday usullar bilan aniqanadi?
10. Analitik fraktsiyalash usulini tushuntiring.

Foydalanish uchun savollar

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M.,

Visshaya shkola, 1988, 312 s.

2. Andrianova G.P., Shestakova I.S., Kukidi D.A., Kasyanova A.A. Ximiya i fizika visokomolekulyarnix soedineniy v proizvodstve isskustvennoy koji, koji i mexa. M. Legpromizdax 1987, 463 s.
3. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu prlimerov.M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
4. Askarov M, A., Ayxodjaev B.O., Alovitdinov A. B. Polimerlar kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1988.

Ma'ruza 9

POLIMERLARNI MAKROMOLEKULALARI TUZILISHI BO'YICHA TURLI-TUMANLIGI. ZANJIR KONFIGURATSIYASI, MAKROMOLEKULALARNING IZOMERLANISHI

Zanjir konfiguratsiyasi makromolekulaning kimeviy strukturasi aks ettiradi. Bog uzunliklarining va valent burchaklarning muayan kiymatlari bilan aniklanuvchi cho'zilgan zanjir atomlarini o'zaro joylashishi KONFIGURATSIYA deyiladi.


Zanjir konfiguratsiyasi fakat kimyoviy boglarni uzish, ya'ni kimeviy reaksiya xisobiga uzgarishi mumkin.

Zanjirning kamtashluvchan bulagining konfiguratsiyasi monomer zvenolarining zanjir bshlab orientatsiyalanishi, zvenolarning birikish konfiguratsiyasi (yaqin masofadagi tartib), kaa bloklarni birikish konfiguratsiyasi (uzoq masofadagi tartib), polimer zanjiri tekisligiga nisbatan urinbosarlarning fazoda joylashishi va geometrik (tsis- va trans-) izomeriya, (agar zanjirda kush bog bulsa) va zanjir konfiguratsiyasi bilan ayushshnadi.


Yakin masofadagi tartib bu bir necha kushni zvenolar uzunligida ularning tartibli joylashishi.

Uzoq masofadagi tartib bu zvenolar o'lchamidan juda katta masofada ularni tartibli joylashishidir.

Zveno konfiguratsiyasi tarkibida to'yingmagan bog' bo'lgan zanjir uchun quyidagicha bo'ladi:




Asimmetrik uglerod atomini ushlab turuvchi to'yingan zanjir uchun quyidagi konfiguratsiyalar xos:




Zvenolarni zanjir buylab yaqin masofada tartibli joylashishi -strukturaviy izomerlanishni va fazoda tartibli joylashishi - fazoviy izomerlanishni farqlashadi.

Makromolekula xosil bulishi jaraenida monomer koldiklari bir-biri bilan turlicha birikishi mumkin: bosh-boshga (β - β), dum-dumga (α - α) va bosh dumga (α - β) kabi. Masalan:






Dien uglevodorod polimerlarida kuyidagi izomerlar mavjud bulishi mumkin:

zanjir o'sishida ikkila qo'sh bog' qatnashgan hol uchun:




zanjir ўсишида биа қўш боғ қатнашган хол учун:



Sopolsherlarda xosil bulishi mumkin bulgan strukturaviy izomerlar soni ortadi. Sopolimerlarda monomer zvenolarini zanjir bo'ylab statistik yoki tartibli taqsimlanishi bo'lishi mumkin.


~B - AA - BBBB - AAA - BB~	статистик
~BBB - AA - BBB - AA - BBB~	тартибли
~A - B - A - B~	тартибли

Fazoviy izomeriya Stereo (fazoviy) tartibli polimerlarda oldingi va keyingi birikuvchi zvenolar bir xil izomer shaklida bo'ladi. $-SN_2-$ SR-SN-SN₂- zvenolardan tashkil topgan polimerlarda zvenolarni 1,4-tsis-,1,4-trans- birikishi hisobiga quyidagi stereo izomer strukturalar hosil bo'ladi.



Bu turdagi polimerlar uchun stereoizomer tekisligi bulib qo'sh bog'lar tekisligi xizmat kiladi.

Stereoizomer tekisligiga nisbatan o'rinbosalarni joylashishi buyicha izotaktik, sindiotaktik va ataktik polimerlarni farqlashadi.




Zanjir konfiguratsiyasi zvenolar yoki bloklarni ketma-ket uzoq masofada tartibli joylashishib birikishi bilan aniklanadi. Bunda chizikli polimer hosil bo'ladi.

Ko'p polimerlarda tarmoqlanish kuzatiladi.

1 uzunlikdagi asosiy zanjir bilan birga u bilan kimyoviy bog'langan l₁ uzunlikdagi yonaki zanjirlari ham bo'lgan polimerlar tarmoklangan


polimerlar deyiladi. Yonaki va asosiy zanjirlar bir xil zvenolardan tashkil topgan.



a) - kalta yonaki zanjirli, b) uzun yonaki zanjirli, v) taroqsimon, g) yulduzsimon, d) statistik tarmoklangan polimerlar.

Makromolekulalar o'zaro ko'prik bog'lar bilan biriksa to'rsimon polimerlar hosil bo'ladi.

To'rsimon polimerlarning quyidagi turlari mavjuddir:



Polimerlarni kimyoviy tarkibi buyicha turli-tumanligi

Bu turdagi turli tumanlikda bitta zanjirda turli tartibdagi zvenolar mavjud buladi. Masalan polivinil spirti, tsellyuloza efirlari va x.k. Odatda bu turdagi turli tumanlik polimer analogik o'zgarishlar bilan olingan polimerlarda ko'proq uchraydi.

Tayanch so'z va iboralar

Ko figuratsiya, yakin masofadagi tartib, uzok masofadagi tartib, zveno konfiguratsiyasi, strukturaviy izomeriya, sopolimerdagi strukturaviy izomeriya, fazoviy izomeriya, zanjir konfiguratsiyasi, tarmoqlangan, chiziqli, turlangan

polimerlar, kimyoviy tarkib bo'yicha turli-tumanlik.

Kaytarish uchun savollar

1. Konfiguratsiyaga ta'rif bering.
2. Polimerlar uchun konfiguratsiyaning kandy turlari xosdir?
3. Zveno konfiguratsiyasi nima?
4. Kandy fazoviy izomerlarni bilasiz?
5. Sopolimerlar uchun kandy strukturaviy izomeriya xos?
6. Fazoviy izomeriya nima?
7. Zanjir konfiguratsiyasi kandy buladi?
8. Polimerlardagi kimyoviy tarkib bo'yicha turli-tumanliklar qandy bo'ladi?
9. Zanjir konfiguratsiyasini qandy o'zgartirish mumkin?
10. Makromolekula xosil bulish jarayonida monomer qoldiqlarini bir biri bilan birikish turlarini ko'rsating (bosh-boshga, bosh-dumga, dum-dumga).

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyar-nix soedineniy. M.: Ximiya, 1976, 437 s.
2. Oudian Dj. Osnovi ximii polimerov. M.: Mir, 1974, 614 s.
3. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.


MA'RUZA 10

Individual makromolekulalarning strukturasi

Makromolekulalarning o'lchami, shakli va konformatsiyasi.



Makromolekulalarning o'lchamlari uning uzunligi va diametri bilan aniklanadi. Makromolekulada uni tashkil kalgan atomlar, atomlar guruxlari

(xususan bnaki tarmokdardagi) o'rtasidagi o'zaro ta'sir va absolyut noldan farqli istalgan temperaturada issiklik harakati mavjuddir. Bu har bir vaqt davomida makromolekulaga konformatsiya xosilligini kelib chikaradi. Har bir konformatsiya fazoda atom, atom guruhlarining ma'lum bir tartibda joylashishi bilan xarakterlanadi. Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish issiqlik yoki tashqi kuchlar ta'sirida kimyoviy bog' uzilmasidan σ - bog atrofida burilish, tebranish xisobiga amalga oshadi. Minimal energetik xolatga to'g'ri keluvchi konformatsiya turgun bo'lib konformer deyiladi. Konformatsion izomerlarga organik moddalar-ning tsis- va trans- izomerlanishi misol bo'la oladi. Masalan, etan molekulasida quyidagi ikkita xolatlar bo'lishi mumkin:



Trans- forma energetik eng kulay xolatdir va unga minimal energiya to'g'ri keladi. Konformatsion o'zgarish bitta SN_3 - guruxini σ -bog' atrofida 60° ga burilishi hisobiga sodir bo'ladi. Bunda sistemaning potentsial energiyasi U_T dan $U_{ts} = U_0$ gacha o'zgaradi. Bu burilishni amalga oshirish uchun potentsial to'siqni (U_0) oshib o'tish kerak bo'ladi.

Molekula strukturasi murakkablashishi potentsial to'siq (U_0) ni oshirib, oddiy bog'lar atrofida aylanishi yanada qiyinlashtiradi. Masalan, dixloretan $S_1SN_2SN_2S_1$ quyidagi holatlarda bo'lishi mumkin.



Gosh shaklning trans- shakliga nisbatan turgunligi kam ($U_G > T_t$) Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga utish uchun $kT > U_0$ bulishi kerak. U_0 ning kiymati (mikdori) o'rinbosar turiga, uning qutbliligiga bog'liq: o'rinbosarni qutbliligi va hajmi ortishi bilan U_0 ortadi.

Monomerlardan polimerlarga o'tilganda aylanishning tormozlanganligi ortadi. Polimerlarda aylanishi amalga oshishi uchun zanjirdagi valent burchaklari mustaxkamlanmagan va asosiy zanjirlardagi o'rinbosarlarning ta'siri bo'lmasligi kerak. Bunday zanjirning zvenolari istalgan konformatsiyalarni qabul qila oladi. Bunday zanjirlar amalda uchramaydi va ularni erkin tuzilgan zanjirlar deyiladi.


Real makromolekulalarda valent burchaklar mustahkamlangandir. Bu konformatsiyalar sonini kamayishiga olib keladi.

Konformatsiyalar soni va ularning mavjudlik ehtimolligi molekulyar va makromolekulalararo ta'sirining mavjudligi bilan belgilanadi. Yuqorida aytilganlar bilan birga polimerlarda yaqin va uzoq masofadagi tartiblarning mavjudligi oddiy bog atrofida aylanishining tormozlanganligining sababchilaridir. Zanjir buylab uzoq masofada o'rinbosarlarni fazoda bir-biriga

nisbatan joylashishi uzoq masofada konformatsion tartib namoyon bo'lishiga olib keladi.


Zanjir konformatsiyasi bu issik,lik xara-kati va tashshch kuchlar ta'sirida makromolekula ega buladigan ulcham va ma'lum bir shchakldir.

Makromolekulalarning k;u-yidagi konformatsiyalarini fark;lashadi:



r)

o)




a) statistik talaba; b) spiral; v) globula; g) chizikli (tor); d) buklangan; e) kalenval tirsakli). Tashqi faktorlar (temperatura va kuchlanish) ta'sirida makromolekula konformatsiyasi uzgarishi mumkin. Shu sababli g'alayonlatuvchi faktorlar yo'qligidan konformatsiya xdkida suz yuritish mumkin.

Makromolekula uzunligining xarakteristikasi konformatsiyadan kat'iy nazar uning uchlari orasidagi masofa r dir. Butunlay yoyilgan zanjir uchun $r=1$. Bu zanjir uzunligini konjr yoki zanjirning gidrodinamik uzunligi deb ataladi. Butunlay uraltn makromolekula uchun $r=0$. Oraliq konformatsiyalar uchun $0 < r < 1$. Makromolekula doimo harakatda bo'lib konformatsiya o'zgarib turgani uchun r o'rtacha qiymat bo'lib makromolekula bir uchidan ikkinchi uchiga utkazilgan vektordir.

Makromolekula uchlari orasidagi masofa shu masofani urtacha kvadrati r^2 yoki o'rtacha kvadrat masofa $(r^2)^{1/2}$ bilan xarakterlanadi.

Makromolekula uchlari orasidagi masofaning absolyut qiymatining taqsimlanish egri chizigi quyidagi ko'rinishga ega bo'lib bu taqsimlanishning matematik ifodasi quyidagichadir.



$$W(z) = \frac{4b^3}{\sqrt{\pi}} z_{cb}^2 \exp(-b^2 z_{cb}^2)$$

$$b^2 = \frac{3}{2} \frac{1}{nh^2}$$

$W(r)$ - zanjir mavjudligishshng termodinamik ehtimolligi;

n - qaytariluvchi zvenolarning soni;

h - zveno uzunligi;

r_{sv} - erkin tuzilgan zanjir uchlari orasidagi masofa;

b - konstanta.

Zanjir uchlari urtasidagi ehtimolligi eng katta masofa quyidagi formula buyicha aniqlanadi:

$$\bar{z}_{\text{bof}, \text{max}}^2 = \frac{3}{2} n l_{3b}^2 = n l_{\text{bof}}^2 \frac{1 + \cos \beta}{1 - \cos \beta} = l_{\text{bof}}^2 \sqrt{2M/M_{3b}}$$


$l_{\text{bog'}}$ - bog' uzunligi; $n=M/M_{zv}$ (M va M_{zv} - polimer va zvenoning MM; β - valent burchakka qo'shimcha burchak,

Makromolekulalarning halqalanganlik daratari $l(r)^{1/2}$ nisbat bilan baxolanadi, ya'ni u ham polimerning MM bog'liq.

Makromolekula uchlari orasidagi masofa uning persistent uzunligi, bilan

ham baholanishi mumkin. Agar makromolekulami uzluksiz chuvalchang sifatida qarasak, r vektorning kalava uchiga o'tkazilgan urinmadagi proektsiyasi zanjirning persistent uzunligidir.

Makromolekulada shunday uchastkalarni (bulaklarni) ajratish mumkinki, ularning konformatsiyasi zanjirning boshqa uchastkalariga bog'liq bo'lmaydi. Zanjirning bunday uchastkasi A nng holati qo'shni uchastkalarga bog'liq bo'lmaydi va ularni termodinamik segment yoki kun segmenti deyiladi.



Real zanjirlar uchun makromolekula uchlari orasidagi masofaning absolyut

qiymatlarining taqsimlanishi quyidagicha ifodalanadi:

$$w(\bar{r}) = \frac{4b^3}{\sqrt{\pi}} \bar{r}^2 \exp(-b^2 \bar{r}^2)$$

$$b^2 = \frac{3}{2} \frac{1}{A^2 z}$$

A - segment uzunligi, z - segmentlar soni, r^2 - real zanjir uchlari orasidagi masofaning kvadrati..

Taqsimlanish egri chizigining maksimumida kalava o'lchami quyidagiga teng:

$$\bar{r}^2 = \frac{3}{2} z A^2 = n \ell_{\text{Goe}} \frac{1 + \cos \beta}{1 - \cos \beta} \frac{1 + \cos \varphi}{1 - \cos \varphi}$$

φ - aylanish imkoni bo'lgan o'rtacha burchak $\cos \varphi = 1$, r^2 - cho'zilgan konformatsiya bo'lish ehtimolligi katta bo'lgan hol. $\cos \varphi$ bu erkin aylanishning sharti bo'lib, barcha tormozlangan aylanish hollari uchun $\cos \varphi$ quyidagicha aniqlanadi:

$U_0(\varphi)$ - aylanishning potentsial to'sig'i;

k - Boltsman konstantasi.

Oxirgi ifodadan ko'rinadiki, 2 ta chegaraviy holat mavjud.

$U_0(\varphi) \ll kT$ – aylanish tormozlanmagan bo'lib makromolekula cheksiz sonli konformatsiya qabul qiladi.

$U_0(\varphi) \gg kT$ – aylanish tormozlangan sistema energiyasi $U_0(\varphi)$ ni engib o'tishga etmaydi. Makromolekula cho'zilgan zanjir shaklda buladi.

Tayanch suz va iboralar

Konformatsiya, konformer, tsis-, trans-izomerlanish, potentsial tusiq, erkin tuzilgan zanjir, uzoq masofada konformatsion tartib, makromolekula konformatsiya\ turlari, zanjir gidrodinamik uzunligi, makromolekula uchlari orasidagi masofa, taksimlanish egri chizigi, termodinamik segment, erkin aylanish sharti.

Qaytarish uchun savollar

1. Makromolekula konformatsiyasi deganda nima tushuniladi?
2. Kanday konformatsion izomerlarni bilasiz?
3. Ichki aylanishga karshlik kiluvchi potentsial tusik nima va uning kiymati nimalarga boglik buladi?
4. Erkin tuzilgan zanjir deb nimaga aytiladi va uni vazifasi nima?
5. Makromolekulani konformatsiyalarini qanday turlari mavjud?
6. Makromolekula konformatsiyasini miqdoriy baxolash uchun qanday ko'rsatkich ishlatiladi?
7. Zanjir uchlari orasidagi masofani taqsimlanish egri chizig'i va unga mos keluvchi matematik ifodani bayon kiling. Makromolekula uchlari orasidagi masofani baxolashni yana kanday mezonlari bor?
8. Termodinamik segment tushunchasini tavsiflab bering.
9. Makromolekulaning erkin aylanish shartini tavsiflab bering.

11. Zanjir konformatsiyasi nima?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.


Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyar-nix soedineniy. M.: Ximiya, 1976, 437 s.
2. Oudian Dj. Osnovi ximii polimerov. M.: Mir, 1974, 614 s.
3. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

Ma'ruza 11

Polimerlar egiluvchanligi

Polimerlarning fizik xossalari ularning kimviy tuzilishi bilan belgilanadi. Biroq fizik xossalari va kimyoviy tuzilish orasidagi bog'liqlik o'ta murakkabdir. Bu bog'liqlikni tushunish uchun polimerlarning egiluvchanligi termini kiritilgan bo'lib, ichki molekulyar issiqlik harakati yoki tashqi kuchlar ta'sirida makromolekulani o'z konformatsiyasini o'zgartirish qobiliyati polimerning egiluvchanligidir. Egiluvchanlik faqat polimerlarga xos bo'lib, ularning muhim xossasidir. Makromolekulalar konformatsiyasi zvenolarning asosiy zanjirning σ - bog'lari atrofida tormozlangan aylanishi natijasida o'zgaradi. Shunday kilib zanjir egiluvchanligi makromolekulalardagi σ - bog atrofida ichki aylanishning engilligi bilan belgilanadi. Zvenolarni -S-S- bog atrofida aylanishini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.



α - valent burchak


β - valent burchakni tuldiruvchi burchak

φ - ichki aylanish burchagi

1, 2,3,4,5,6 va punktir chizik - suyultirilgan eritmalarda aylanish traektoriyasi;

1,6,7 va uzluksiz chiziq - qattiq agregat holatda ilgariylanma-kaytma tebranish oblasti.

U_1 energiyali bir konformatsiyadan U_2 energiyali ikkinchi konformatsiyaga zvenosini φ burchakka burilish natijasida σ - bog atrofida aylanayotgan zvenoning $U(\varphi)$ potentsial energiyaning o'zgarishi quyidagi ko'rinishga ega.



Aylanish ehtimolligi ikkala holatlarning energiyalarining farqi $U_1 - U_2 = \Delta U$ va potentsial to'siq U_0 qiymati bilan belgilanadi. Termodinamik va kinetik egiluvchanliklarni farqlashadi.

Termodinamik egiluvchanlik

Ichki issiklik harakati natijasida 1- konformatsiyadan 2- konformatsiyaga o'tish qobiliyati bilan xarakterlanadi. ΔU ning qiymatiga bog'liq.

Termodinamik egiluvchanlik quyidagi ko'rsatgichlar bilan baholanadi:

birlik parametri (σ_j)

$$\sigma_j = \frac{(\bar{z}^2)^{1/2}}{(\bar{z}_{jT3}^2)^{1/2}}$$

$(\bar{z}^2)^{1/2}$ - real zanjirning uchlari o'rtasidagi urtacha kvadrat masofa.

$(\bar{z}_{jT3}^2)^{1/2}$ - erkin tuzilgan zanjirning uchlari o'rtasidagi o'rta kvadrat masofa.

Bu kursatgich sigmentlari valent boglar atrofida aylanishadi, ularning deformatsiyaga uchramagan holatida qo'llaniladi. Bunda nadmolekulyar strukturaga uzgarmas bo'ladi.

Termodinamik sigmentning uzunligi (A)

Bu n - sonli zvenoning shunday ketma-ketlashchni, u uzini $n+1$ zvenoga bogliq bo'lmagan holda tutadi. Butkul egiluvchan zanjir uchun A qaytariluvchi elementar zveno uzunligiga teng. Butkul biki zanjir uchun $A=1$ (1 - zanjirning gidrodinamik uzunligi).

Persistent uzunlik (a) ham egiluvchanligini xarakterlaydi. Odamda $a=A/2$.

Florining egiluvchanlik parametri (f_0) makromolekuladagi egiluvchan boglar miqdorini xarakterlaydi. Bu parametr egiluvchanlikning miqdoriy kriteriysidir.

$f_0 > 0.63$ egiluvchan polimer

$f < 0.63$ bikr zanjirli polimer.

Termodinamik egiluvchanlik polimerning kimyoviy tuzilishiga bogliq. Dien qatorga mansub ($-SN_2-SN=SN-SN_2-$) polimerlar vinil polimerlardan ko'ra ko'proq egiluvchan buladilar. $-Si-O-$, $-S-O-$ kabi boglar saqlovchi zanjirlarning ham egiluvchanligi yuqori bo'ladi.

Vinil polimerlarda zanjirga qutbli o'rinbosarlarning kiritilishi ularning egiluvchanligini biroz kamaytiradi. Polimerlarda N-bog hosil kiluvchi guruxlar, o'rinbosarlarning bo'lishi aromatik guruxlarning bo'lishi egiluvchanlikni kamayishiga olib keladi.

Kinetik egiluvchanlik

Bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish tezligini ko'rsatadi. Bu utishda potentsial to'siqni engib o'tish kerak bo'ladi. Kinetik egiluvchanlik potentsial to'siq qiymatidan molekulyar massadan, polimerlarning choklanish darajasidan va temperaturaga boglik.

Potentsial to'siq qo'shni zvenolardagi atom va atom guruxlarning o'zaro ta'siri bilan belgilanib o'rinbosarlarning kutbliligiga bog'liq. Potentsial to'siq qiymat kichik bo'lgan polimerlar yuqori kinetik egiluvchanlikka ega. Odatda polimer tarkibida gruppalarning bo'lishi, o'rinbosarlarning hajmini ortishi kinetik egiluvchanlikni kamaytiradi. Kinetik egiluvchanlik kinetik sigment qiymati bilan baholanadi. Kinetik sigment deganda zanjirning kinetik egiluvchanligini namoen qila oladigan uzunligi tushuniladi.

Polimerning molekulyar massasi

Bu kursatgich potentsial tusiq balandligiga ta'sir qilmaydi. Ammo zanjir uzunligining o'sishi kinetik egiluvchanchanlikni ortishiga

olib keladi.

Polimerning turlanish darajasi

To'rsimon struktura hosil bo'lishi va uning zichligining ortishi egiluvchanlikni kamaytiradi.

Temperatura

Temperatura ortishi bilan makromolekulaning kinetik energiyasi ortadi. Natijada potentsial tusikni oshib utish ehtimolligi ko'payadi, bu o'z navbatida kinetik egiluvchanligining ortishiga sabab buladi.

Aloxida makromolekula uchun qayd qilingan qonuniyatlar makromolekulalar to'plamidan tashkil topgan (kondensirovannoe sostoyanie) polimerlar uchun ham tadbiq qilinishi mumkin. Bu holatdagi polimerlarning ksinetik egiluvchanligining o'lchami sifatida mexanik sigment namoyon bo'ladi. Mexanik sigment polimer molekulyar zanjirning shunday mingiyal qiymatiki, undan boshlab kinetik egiluvchanlik namoyon bo'ladi. Bir xil molekulyar massa qiymatida mexanik sigmentning kattaligi shishalanish va oquvchanlik temperaturasiga bog'lik.

T_{sh} - egiluvchanlik namoyon bo'lishning quyi temperatura chegarasidir;

T_0 -konformatsiya uzgarishining yuqori temperatura chegarasidir.

Qattiq agregat holatdagi polimerlarda kinetik egiluvchanlik ularning molekulyar massasiga bog'liq emas. Lekin polimerlarning molekulyar va nadmolekulyar strukturasiga bogliq. Amorf polimerlarning egiluvchanligi yuqori. Orientatsiyalanish kinetik egiluvchanlikning kamayishiga olib keladi.

Tayanch suz va iboralar

Egiluvchanlik, ichki aylanish, aylanaetgan zveno potentsial energiyasi, aylanish extimolligi, termodinamik egiluvchanlik, kinetik egiluvchanlik, termodinamik egiluvchanlik baxolash, bikrlik parametri, termodinamik segment

uzunligi, persistent uzunlik, Flori egiluvchanlik parametri, zanjir kimeviy tuzilishi termodinamik egiluvchanshshgiga ta'siri, kinetik egulavchanlik, tasir qiluvchi omillar, potentsial tusiqlik, kinetik segment, polimer molekulyar massasi, polimer turlanish darajasi, temperatura, mexanik segment.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerning egiluvchanligi deganda nima tushunasiz? 2. Zanjir egiluvchanligi nima bilan belgilanadi?
3. Oddiy bog' atrofida aylanaetgan zvenonng potentsial energiyasi qanday o'zgaradi?
4. Zanjir egiluvchanligini qanday turlarini farqlashadi?
5. Termodinamik egiluvchanlik nima?
6. Termodinamik egiluvchanlik qanday ko'rsatkichlar bilan baxolanadi?
7. Polimerning kimyoviy tuzilishining termodinamik egiluvchanlikka ta'siri qanday bo'ladi?
8. Kinetik egiluvchanlik nima?
9. Kinetik egiluvchanlik qanday omillarga bog'liq?
10. Bikrlik parametri nima va u qanday ifodalanadi?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

Ma'ruza 12

Yuqori molekulyar massali birikmalarning agregat va fazaviy holatlari

Polimerlarda fazaviy o'tishlar

Agregat va fazaviy xolatlar

Quyi molekulyar massali birikmalar 3 xil fazaviy xolatlarda bo'lishi mumkin: kristall, suyuq va gazsimon. Bu xolatlar molekulalarni bir-biriga nisbatan joylashish tartibi bilan farklanadi.

Kristall fazaviy xolat kristall panjaraning mavjudligi va fazoda uning yo'nalishida polimerlar yoki atomlar joylashishida uzoq masofada tartib bilan xarakterlanadi.

Suyuq fazaviy xolatni ko'pincha amorf holat deyiladi. Bunga sabab unda kristall panjaraning yo'qligii va atom va molekulyar joylashishida yaqin masofada tartibning mavjudligidir. Amorf moddalar ham molekula yoki atomlarning zich joylashuvi bilan xarakterlanadi Ammo bu zichlik kristall jinslar zichligidan kichikdir. Polimeralar 2 xil fazaviy xolatda: kristall va amorf xolatlarda bo'ladilar.

Quyi molekulyar massali birikmalar 3 xil agregat xolatda bo'ladilar: gazsimon suyuq va qattiq. Bu xolatlar atom va molekulyar joylashish zichligida, xarakatlanish xarakterida va mexanik ta'sir natijasida uzini tutishi bilan farqlanadi. Qattiq agregat xolatga kristall va amorf fazaviy xolatlar mos tushadi. Qattiq amorf jismlar shishasimon jismlar deb ataladi. Polimerlarning suyuq agregat xolatiga qovushqoq oquvchan xolat deb ataladi.

Yuqori qaytar deformatsiya xarakterli bo'lgan polimerning holati yuqori elastik xolat deyiladi. Shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq, oquvchan xolatlar polimerlarning fizik xolatlari deyiladi. Suyuq polimerlarning qattiq shishasimon xolatga o'tish temperaturasi shishalanish temperaturasi deyiladi. Polimerda sezilarli qovushqoq oquvchanlik deformatsiyasi uchraydigan temperatura okuvchanlik temperaturasi deyiladi.

Fazaviy utishlar Bir fazaviy holatdan 2-fazaviy holatga o'tishi fazaviy

o'tishlar deyiladi. Bu o'tishlar molekulaning joylanishini o'zgarishi bilan va moddaning termodinamika xossalari uzgarishi bilan bog'liq. Birinchi va ikkinchi turdagi fazaviy utishlarni farklashadi.

Birinchi turdagi fazaviy utish ichki energiyani, xajmni, entropiyani o'zgarishi bilan sodir bo'lib unda issiqlik effekti kuzatiladi.

Ikkinchi turdagi fazaviy utish ichki energiyani, entalpiyani, xajmni va temperaturaning uzluksiz o'zgarishi bilan sodir bulib, issiqlik yutilmaydi ham, ajralib chiqmaydi ham. Ammo erkin energiyani bosim va temperatura buyicha 2-xosilalari sakrab o'zgaradi. Demak, moddaning issiklik sigimi, xajm kengayishining issiqlik koeffitsienti va izotermik siqiluvchanlik kabi xossalari sakrab o'zgaradi.

Kristallanish bu birinchi turdagi fazaviy o'tish bo'lib makromolekulalarning joylashish tartibini va ularni termodinamik xossalarini uzgarishi bilan xarakterlarni, issiqlik effekti bilan sodir buladi. Shishalanish yuqori elastik holatdan shishasimon holatga o'tish bo'lib fazaviy o'tish emasdir.

Shishasimon x.olat va shishalanish

Shishasimon holat (qattiq agregat holat) makromolekulaning joylashish zichligining yukoriligi bilan xarakterlanadi. Ularning joylashish zichligi joylashish koeffitsienti bilan baholanadi.

Segmentlarning strukturaviy relaksatsiya vaqti quyidagi formuladan topiladi:

$$\tau^* = A \exp (U/kT)$$

$A=10^{-12}$ - konstanta, U - segmentlarning xfrakatlanishining aktivlanish energiyasi. K - Boltsman doimiysi; T – temperatura

Shunday kilib, temperaturaning kamayishi τ^* ni o'sishiga olib keladi. Bosim ortishi bilan U ni va τ^* ning ortishi kuzataladi.

Shishalanishning kinetik relaksatsion nazariyasi bu hodisani doimiy normal bosimda temperatura kamayishi yoki doimiy temperaturada bosim ortishi Bilan relaksatsion hodisalarning sekinlashishi kabi talkin qiladi.

Erkin xajm nazariyasi

Bu nazariya asosida shishalanish jaraenida erkin xajm U_s ning kamayishi etadi. Jism sovitalganda namunada erkin xajm kamayishi sodir buladi.

Erkin xajm nazariyasida shishalanish temperatura sifatida sovitish jarayonida erkin xajmning malum bir uzgarmas qiymatini egallash temperaturasi kabul qilinadi

Shishalanish temperaturasi quyidagi nisbatda anikdanadi:

$$T_{sh} \Delta \beta = f_c; \quad T_{sh} \Delta \beta = V_c/V_T$$

$\Delta \beta = \beta_1 - \beta_2$; β_1 va β_2 - shishalanish temperaturasiidan yuqoridagi (β_1) va pastdagi (β_2) xajmiy kengayishning issiilik koeffitsienti.

$$f_c = \frac{V_c}{V_T}$$

f_c - geometrik erkin xajmning ulushi

Termodinamik nazariya

Bu nazariya shishalanishning sistemani konformatsion entropiyasi S ning kamayishi bilan boradigan utish deb qaraydi. Shishalanish sistemaning adnformatsion entropiyasini minimal qiymatida sodir bo'ladi. Bu qiymat kuyidagi nisbatdan topiladi:

$$\Delta S = \Delta C_p \ln (T_{sh}/T_2)$$

T_g - sistemaning konformatsion entropiyasi nolga teng buladigan temperatura. Odatda T_2 shshalanish temperaturasiidan 50% ga kam buladi.

Shishalanishning molekulyar va molekulalararo ta'sirlanish natijasida tugunchalar dosil bo'lib, fluktuatsion tur xosil bulishi bilan xam boglashadi. Bu tur x,osil bulishi uchun molekulyar va molekulalaaro ta'sir energiyami issiklik xdrakati energiyasidan katta bulishi kerak.

Polimer faqat temperaturaning pasayishi va bosimning ortishi

xlsobigagina emas, balki mexanik maydon ta'sirida xam shishasimon holatga utadi. Bu jarayon mexayik shishalanish deyiladi.

Mexanik ta'sir natijasida makromolekulani konformatsiyasini uzgartirish qobiliyati kuchning ta'sir qilish vaqti t_D va bir konformatsiyadan ikkinchi konformatsiyaga o'tish uchun zarur bulgan vaqt t_n nisbati bilan belgilanadi. $t_n/t_d > 1$ polimer uzini bikr sistema kabi tutadi va u konformatsiyasini uzgartira olmaydi. $t_n = \tau * U$, u holda mexanik shishalanish sharti $T^*/t_d > 1$ buladi.

Mexanik shishalanish natijasi polimer shishasimon holatga o'tish temperaturasi mexanik shishalanish temperaturari deyiladi.

Mexanik kuch ta'sir qilish tezligi juda kichik bulsa $T_{msh} = T_{sh}$, katta bulsa $T_{msh} > T_{sh}$ bo'ladi.

Tayanch suz va iboralar

Fazaviy xolat, amorf moddalar, polimerlar fazaviy xolati, aregat xolat, shishasimon jismlar, kovushkoq okuvchan xolat, elastik xolat, shishalanish temperaturasi, okuvchanlik temperaturasi, fazaviy utishlar, shishasimon xolat, shshalanish, nazariyalari, relaksatsion kinetik nazariya, erkin xajm nazariyasi, termodinamik nazariya, mexanik shishalanish

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlar qanday agregat xolatlarda bula oladi?
- 2 Polimerlar ketszday fazaviy xolatlarda bula oladi?
3. Polimerlarga kanday fizik xolatlar xos?
4. Birinchi va ikkinchi fazaviy utishlar nima?
5. Kristallanish va shishalanish fazaviy utishlarga kiradimi?
6. Shishalanish nima va shasimon xolat xususiyatlari kanday?
7. Shishalanishning relakeatsion kinetik nazariyasini baen kiling.
8. Shishalanishi erkin xaam nazariyasini baen kiling..
9. Shishalanishning termodinik nazariyasini baen kiling.
10. Mexanik shishalanish nimaga uni yuzaga kelish shartlari qanaka?

Foydalanish uchun adabiyotlar

Asosiylari

1. Semchikov Yu.D., Jiltsov S.F., Kashaeva V. N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 151 s.
2. Askarov M.A., Ayxodjaev B.O., Alovitdinov A. B. Polimerlar kimyosi, Toshkent, Ukituvchi, 1988 i.

Kushimchalari

4. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyarnix soedineniy. M., Ximiya, 1976, 437 s.
5. Praktikum po visokomolekulyarnim soedineniyam Pod red. Kabanova V. A. M.: Ximiya, 1985, 224 S.
6. Praktikum po ztsmii i fizike polimerov / Pod red. Kurenkova V.F.. M., Ximiya, 1978.

Ma'ruza 13

Shishasimon (amorf) polimerlanishning mexanik (deformatsion) xossalash


Mexanik xossalar polimerga mexanik kuch ta'sir qilganda uning strukturasining, o'lchamining va shaklining o'zgarish darajasini belgilaydi. Mexanik kuchlarning ta'sir qilish vaqti va qiymatiga qarab polimer materiallar deformatsiyalanadilar yoki ularning yaxlitligi buziladi.

Deformatsion xossalar polimer materiallarni mexanik kuchlanish ta'sirida deformatsiyalanishini xarakterlaydi.

Mexanik xossalar polimer materiallarning mexanik kuchlanish ta'sirida buzilishiga qarshlik kursatish qobiliyatini xarakterlaydi.

Deformatsiyalanish polimer strukturasining va uning xossalarning uzgarishi bilan sodir bo'ladi. Deformatsiya qancha ko'p (kuchli) bulsa, struktura va xosslarning o'zgarishi shunchalik ko'p buladi.

Polimerlarning deformatsion xossalari odatda kuchlanish - deformatsiya egri chizgi bilan baxolanadi. Shishasimon polimerlar uchun bu egri chizik; quyidagi




kurinishga ega. Shakldan ko'rinadiki, polimerlarning kuchlanish deformatsiya egri chizigini uch bosqichga bulish mumkin.

1-bosqich. (OA uchastkasi) polimer qayishqoq deformatsiyalanadi, deformatsiya Guk konuniga buysonadi (kuchlanish deformatsiyasiga tugri proportsional boglik). Namuna shakli deyarli o'zgarmaydi. Polimerii deformatsion xossalari qayishqoqlik moduli E va qayishqoq deformatsiya E bilan baholanadi,

2-bosqich. A nuktadan boshlanadigan kuchlanishing ozgina uzgarishda namunani kuchli (kup) deformatsiyalanishi bilan xarakterlanadi. Bu bosqichdagi deformatsiya shishasimon polimerii "sovuk holda oqishi" deb ham ataladi. Bu

bosqich boshida V nuqtada kuchlanish biroz kamayib kamuna ingichkalashadi. Bu namunada buyincha xosil bo'lishiga olib keladi. Namunaning keyingi deformatsiyalanishi buyinchaning chuzilishi hisobiga ruy beradi. Buyincha butun namuna uzunligiga tarqalmaguncha chuziladi. Bunda buyincha kalinligi o'zgarmaydi.

3-bosqich. S nuqtada barcha namuna bo'yinchaga o'tib bo'ladi. Namuna buyincha shakshitsa butun uzunligi buylab chuzila boshlaydi. D nuqtada namuna uzgaradi. Bu bosqichda kuchlanish chuzilishga deyarli proportsional uzgaradi.



2-bosqichda erishilgan deformatsiya namunadan kuch ta'siri olib tashlangandan keyin xam saklanib koladi, ammo bu deformatsiya chin plastik deformatsiya emas. Agar buyinchali namuna kdzdirilsa yoki buktirilsa. buyincha

yuqolib namuna dastlabki shaklini

tiklaydi. Bu 2-bosqichdagi deformatsiya yukori elastik deformatsiya ekanligidan dalolat beradi. Odatdagi yuqori elastik deformatsiyadan farkda u shishalanish temperaturasidan quyida kuzatiladi va uning namoyon bulishi uchun katta miqdorda kuch kerak. Bu xodisa majburiy (zo'raki) yuqori elastik deyilib kuzatilagan deformatsiya majburiy elastik deformatsiya (ϵ_v) deyiladi. Uni yuzaga keltirish kuchlanish esa majburiy yukori elastiklik chegarasi (τ_v) deyiladi.

Kuchlanish - deformatsiya egri chizigi keltirilgan shaklda 1-egri chiziq tula, 2-egri chiziq tula bulmagan deformatsiya egri chiziklaridir.

Buyincha hosil bo'lish yoki sovuk holda oqish mexanizmi 1-bosqidagi qayishqoq deformatsiyalanishda namunada erkin xajmning ortishi Bilan tushuntiriladi. Bunda kuchlanish ta'sirida makromolekulaning konformatsiyasining o'zgartirish imkonini oshirib, orientatsiyalangan holatga

o'tishini ta'minlab beradi, ya'ni polimer yuqori elastik deformatsiyalanish qobiliyatini namoyon kiladi, Bu jarayonga relaksatsion xodisa xarakterlidir. Relaksatsion hodisalar mavjudligi tufayli deformatsiyalanishda A nuqtadan keyin kuchlanish τ ning biroz kamayishi kuzatiladi

Namunaga kuchlanish ta'sir etishi atomlar, atomlar guruxlarining oddiy boglar atrofida aylanishining aktivlanish tusigining qiymatining kamayishiga olib keladi va sovuq holda oqish ehtimoligini oshiradi. Bu relaksatsion xodisalarni tezlashishiga ham olib keladi. Strukturaviy relaksatsiya vakgi τ^* va kuchlanish bilan belgilanadi.

$$\tau_i^* = B_i \exp \frac{U_0 - \sigma \alpha}{k T}$$

U_0 - atomlar xdrakatlanishining aktivlanish energiyasi;


α - konstanta kuchlanishning kichik kiymatlarida $\alpha\sigma \ll U_0$ va tenglama relaksatsiyani issiqlik harakatiga boglovchi

$$\tau^* = V \exp U_0/(kT)$$

tenglamaga utadi.

Shishasimon holatda $U_0 \gg (kT)$ bo'lib τ^* ning qiymati yuqori buladi. σ ning katta qiymatlarida $(\alpha\sigma - U_0)$ bo'lib relaksatsiya vakti qisqarib makromolekula konformatsiyasini uzgartira oladi, ya'ni u yukori elastik deformatsiya namoyon kiladi.

Majburiy yuqori elastiklik chegarasi σ_v temperatura ortishi bilan yoki deformatsiyalanish tezligining kamayishi bilan kamayadi. Bunda deformatsiyalanish darajasi ortadi. Kandaydir temperaturada σ_v nying qiymati polimerning murt buzilish kuchlanish qiymatiga mos tushib qoladi, ya'ni $\sigma_v = \sigma_{xr}$. Bu temperaturada murtlik temperaturasi (T_{xr}) deyiladi. Bu temperaturada deformatsiyalanish egri chizig'i tula bo'lmaydi (3 egri chizik;) va polimer yaxlitligi murt buziladi: A va D nuqtalar ustma-ust tushadi. Murtlik temperaturasi T_{xr} hamm shishalanish temperaturasi kabi nomuvozanat xarakteristikadir, U deformatsiya turiga siqilish, cho'zilish, siljish va kuchlanish tezligiga bog'liq. σ_v va σ_{xr} ning temperatura bog'liqligi kuyidagichadir:



Misol tariqasida PS va PMMA (T_{sh} 373 K va 383 K mos ravishda) uchun shu boglanishlarni kurib chikaylik. Temperatura o'zgarishi bilan σ_{xr} ning kichik qiymati va σ_v nshg usish tezligining yuqoriligi sababli PS yuqoriroq T_{xr} ega va majburiy yuqori elastiklik intervali ($\Delta T_v = T_{sh} - T_{xr}$), PMMA dan kichikroq bo'ladi. Shu sababli PS zarbaga chidamsiz buladi.

Makromolekulalarning joylashish zichligining kamayishi, MM ning ortishi T_{xr} ni kamaytiradi. Makromolekulalar joylashish zichligining kamayishi erkin xajmni oshirib relaksatsiyani tezlshtiradi. Bu σ_v ning kamayishiga olib keladi. MM T_{sh} , σ_{xr} va T_{xr} larga ta'sir qiladi.

Shunday qilib shishasimon xolatda polimerlarning deformatsion xossalari qayishqoqlik moduli, majburiy yuqori elastiklik va uning temperaturaga bogliq holda o'zgarishi qayishqoq va majburiy elastiklik deformatsiyalar qiymati bilan xarakterlanadi.

Tayanch so'z va iboralar

Deformatsioy xossalar, mexanik xossalar, deformatsiyalanish. kuchlanish-deformatsiya egri chizigi, amorf polimer deformatsiyalanish bosqichlari, buyincha, majburiy yuqori elastiklik, majburiy elastik deformatsiya, majburiy yuqori elastiklik chegarasi, buyincha xosil bo'lish sababi, deformatsiyalanishda relaksatsion xodisalar, mo'rt buzilish, mo'rt buzilish kuchlanishi, mo'rtlik temperaturasi

Kaytarish uchun savolshchr

1. Mexanik kuchlar ta'sir qilganda polimerlar uzini kanday tutadi?
2. Polimerii deformatsiyalanish kanday sodir buladi?
3. Amorf polimerlarni deformatsiyalanish xoli uchun kuchlanish-deformatsiya egri chizigi kanday kuryushga ega?
4. Amorf polimerlarni deformatsiyalanish mexanizmini baen kiling.
5. Majburiy yukori elastiklik deganda nimani tushunasiz?
6. Buyincha va buyincha xosil bulish sabablarini nimadan iborat?
7. Murtlik, murtlik temperaturasi, murt buzilish va uni temperaturaga boglikligi haqida tushuntirish bering.
8. Polimerii mexanik xossalari nimani xarakterlaydi?
9. Shishasimon polimer uchun kuchlanish-deformatsiya egri chizig'ini tushuntiring.
10. Shishasimon polgsherlar kuchlanish-deformatsiya egri chizig'i xar bir bosqichini tushuntirib bering.

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

MA'RUZA 14
POLIMERLARNING USTKURTMA (NADMOLEKULYaR)
STRUKTURASI

Moddaning asosiy xossalari molekulalarning strukturasi va tarkibigagina bog'liq bulmay, balki molekulalarning uzaro joylashi-shiga ham, ya'ni jismning strukturasi xam bog'likdir.

Molekulalarni uzaro turlicha taxlanishi natijasida yuzaga

kelgan trukturalar ustkurtma (nadmodekulyar) strukturalar deb ataladi.

Ustkurtma struktura elementlarini uzaro joylashishi, ulchamlarini makromolekula va monomer zvenolarining konfiguratsiyasiga va konformatsiyasiga, ayrim atomlar ulchamiga, struktura xosil bulish sharoitiga, uni davomiyligiga va tezligiga, xamda shu kabi boshka faktorlarga bog'lik. Ustkurtma struktura polimerlarni fizik xossalarini, fizik-kimeviy jarayonlar tezligi va mexanizmini belgilab bergani uchun uni urganish aktual ahamiyatga ega.

Ustkurtma strukturalarning turiga qarab kristall va amorf polimerlarni farklashadi.

Amorf polimerlashing ustkurtma strukturasi. Uzok vakt amorf polimerlarga xaotik ravishdagi kalavalar majmui deb karalar edi. Ammo bu tassavurlar amorf polimerlar namoyon qilayotgan xossalarga mos tushmaydi. Amorf polimerlarda xam tartibli; joylashishni mavjud-ligini quyidagi faktorlar kursatadi:


1. BVir xil tarkibli amorf va kristall polimerlarni zichliklari bir-biridan kam farkanadilar. Agar amorf polimerlarda tartibli joylashgan makromolekulalar tuplami bulmasa uni zichligi kristall polimernikidan keskin fark qilishi kerak edi.

2. Amorf polimerlarda kristallanish tezligining yukoriligi. Agar amorf polimerlarda makromolekulalarning tartibli joylashishi bulmasa ularni kristallanish tezligi amalda kuzatilaetganidan juda kichik bulishi kerak edi.

3. Turli fizik-ximik uslublar erdamida (rentgen nurlarni va neytronlarni

difraktsiyasi. elektron mikroskopiya va x.k.) amorf polimerlarda zvenolarning lokal tartibli joylashgan soxalari mav-judligi kursatildi. Bunda tartibli va notartibli soxalar urtasida keskin chegara bulmaydi.

Amorf polimerlar tuzilishining extimolligi mumkin bulgan modellaridan bittasi quyidagi ko'rinishga ega:



1 - domenlar; 2 - pomenlararo fazo; 3 - boglovchn zanjirlar

Domenlar bitta eki 1)ir nechta makromolekulalarni kup marta taxlanib o'zaro parallel joylashgan uchastkalaridan tashkil topadi.

Domenlarni tartiblilik darajasi, o'lchami, soni va o'uzaro joylashishi polimerii sovitish sharoitiga bog'liq. Domenlar zarodish xosil ki-luvchilik vazifasini bajarishi mumkin va amorf strukturadan kristall strukturaga utish tipidagi strukturadir. Domenlar urtasida domenlararo amorf uchastkalar (2) mavjuddir. Ayrim makromolekulalar bir necha domenlar xosil kilishda ishtirok etib, ularni boglovchi (utuvchi) (3) zanjirlar deyishadi.

Amorf polimerlarning boshka modeli bo'yicha ularda klasterlar mavjuddir. Klasterlar makromolekulalar tartibli zich joylashgan soxalardir. Klaster zichligi polimerni urtacha zichligidan yuqori, ammo ularni zichligi va tartiblilik darajasi, kristallarnikidan kichik buladi. Klasterlarda zanjirlar morfologiyasi polimerii molekula darajasidagi strukturasi molekulyar massasi, fluktuatsion tur mavjudligi bilan belgilanadi.

Kristall polimerlarni ustkurtma strukturasi. Kristall polimerlar uchun strukturaviy elementlarni kup majmui xarakterli bulib, ular, ustkurtma strukturami turli pogonalar qatlamini ifodalaydi. Kristall soxalarda makromolekulalar ma'lum bir kat'iy tartibda joylashadilar: makromolekula uklari bir-biriga parallel, uni uchlari esa kristall yuzasida etadi. Kristallografii uklarning bittasi makromolekula o'qi yo'nalishiga mos tushadi. Shakli buyicha

kristallografik yacheykalar (uychalar) bir necha turga bulinadilar: kub, ortoromb, geksagonal va x.k. Uychaga butun makromolekula joylashmaydi, balki uni kichik birismi kiradi (bir necha kaytariluvchan zveno). Shu sababli polimerning elementar uychasi kuyi molekulyar massali shu kabi moddalarning uychasiga uxshaydi. Ammo polimer kristalli uziga xos xususiyatlarga xam ega. Xususan:

1. Polimerlarni kristalllarida kristall soxalar bilan birga amorf uchastkalar xam mavjud. Amorf uchastkalarga yaqin masofadagi tartiblilik xosdir. Kristall fazalarda esa makromolekulalar eng tartibli va zich yaoylashganlar. Kristall fazaning zichligi polimerning urtacha zichligidan, xamda amorf fazaning zichligidan yukori buladi. Polimer namunasidagi kriotallangan polimerii ulushi kristallik darajasi deyiladi. Xona temperaturasida aksariyat polimer larni kristallik darajasi 10-90% atrofida buladi. Masalan: Polietilen

yukori	zichlilik	60-90	Polikaproamid	30-60
kuyi	zichlilik	40-60	Polietilevtereftalat	0-60
Polipropilen		40-70	Polivinilxlorid	0-40
Tsellyuloza		30-70	Polixloropren	10-30

Massa buyicha (K_m) va xajm buyicha (K_x) kristallik darajasi zichlikni bilgan xolda aniklanishi mumkin:

$$K_x = \frac{\rho - \rho_a}{\rho_{kp} - \rho_a} ; \quad K_m = \frac{\rho - \rho_a}{\rho_{kp} - \rho_a} \cdot \frac{\rho_{kp}}{\rho_a} = K_x \frac{\rho_{kp}}{\rho}$$

Kristallik darajasi makromolekulalar tuzilishining tartibliligiga va kristallanish sharoitiga boglik. Orientatsiyalanish kristallik darajasini ortishiga olib keladi. Polimerii olish sharoiti makromolekula tartibliligini belgilashi xisobiga kristallik darajasini uzgartiradi.

2. Makromolekulalar egallagan xajmni umumiy xajmga nisbati - molekulyar joylatsish koefitsienti polimer kristallarida quyi molekulyar

birikmalar kristallarining shu kursatkichidan ancha kichik bulib, 0,65 - 0,73 chegarasida buladi.

3. Bitta makromolekula kup marta kristallografii uychaga kirganligi sababli kristall va amorf fazalar urtasida anik chegara bulmaydi.

4. Kristallar nuksonlar kupligi bilan xarakterlanadi, ya'ni kristallar ichida tugri uch o'lchamli tartibdan chetga chiqish bilan xarakterlanadi. Polimer kristallarning yukori nuksonli bulishining okibati sifatida ularni suyuklanish temperaturasi nazariy bashorat kilinganidan kam buladi.

5. Polimer kristallar uchun taxlangan struktura xosdir. Kristallanish jaraenida usayotgan kristall ma'lum uzunlikka etgach, u uzi uzining ustiga buklanib taxlana boshlaydi va yana kristall ichiga kirib taxt xosil kiladi. Taxt xosil kilib paytiga sistemani erkin energiyasini minimumi tugri keladi. Demakki, taxlangan strukturani xosil bulishi termodinamika nuktai nazaridan yutuk beradi. Bunday struktura kup polimer va oligomerlar uchun tajribada aniklangan. Taxlangan struktura xosil bulishida nuksonlar odatda taxtlar sirtiga sikib chikariladi.

6. Bitta polimerning uzi turli morfologiyali va nuksonli kristall strukturalar majmui bilan xarakterlanadi. Bunday turli-tumanlikning sababi makromolekulalarni molekulyar massasi bo'yicha polidispersligida, tartiblilik darajasida, konfiguratsiyasidadir. Bundan tashkari polimerlarni strukturasi kayti ishlash jarayonida uzgaradi va uni olib borish sharoitiga boglik.



Polimerlarning kristall strukturalarining eng keng tarkalgan turlari kuyidagilardir: kristallitlar, monokristallar, fibrillalar, sferolitlar.

Kristallit bu kristallografik uklari yagona orientatsiyalangan eng kichik kristall usmasidir. Makromolekula uzunligi kristallitning maksimal ulchamidan katta bulgani uchun u kup marta buklanib taxlangan konformatsiya xosil kiladi.

Monokristall odatda elementar uychalardan tashkil topib, kristallografik uklarni yagona orientatsii bilan xarakterlanadi. Barcha monokristallar yuqori darajadagi tartib, ya'ni kusunlar soni kichikligi bilan ajralib turadi. Tuzilishi

buyicha monokristallar uch turga bulinadilar: plastinkasimon, fibrillyar, kalavasimon.


Plastinkasimon monokristallar ko'pincha romb shaklidagi yupka plastinkalardan (kalinligi 10-26 nm, tomonlari 1 mkm gacha) tuzilgan bo'ladi. Shu sababli aksariyat xollarda plastinkasimon kristallarni lamellar (-shakl) deb atashadi.



Bunda s uk makromolekula uki bilan mos tushadi va lamel tekisligiga perpendikulyardir. Lamellarda makromolekula konformatsiyasi taxlangan bulib, makromolekulani 180° bukilishi yuli bilan xosil buladi. taxlanish jaraenida makromolekula kristalldan chiqqan joyiga kaytib kirishi mumkin, qaytib kirmasligi mumkin, ma'lum bir masofadan keyi kirishi mumkin yoki umuman kirmasdan erkin uch bulib kristall sirtida qolishi mukin. Tartibsizlikka olib keladigan holatlar kristallarda taxlanish tartibini buzishiga olib keladi. Shu sababli monokristallar eng mukammal kristall strukturalar bo'lishiga qaramay, ularda kristallik darajasi 100% bo'lmaydi. Bir qism molekulalar kristallga kirmay nukson uchastkalarni, yani amorf fazani tashkil kiladi. Chuzilgan zanjirlardan iborat monokristall polimerlardagi eng mukammal kristall strukturalardir. Lamellar monokristallarning birlamchi elementlari bulib, ular turli shakdtsagi morfologik strukturalarga jamlanishi mumkin: terrasasimon monokristallar, ichi bush piramidalar, yulduzsimon dendritlar.

Fibrillyar monokristallar tuzilishini kurib chikishdan oldin fibrilla tushunchasida to'xtab o'taylik. Bir-biriga nisbatan parallel joylashgan tugrlangan zanjirlardan xosil bulgan agregatlar (zanjirlar tuplami) Fibrilla deyiladi. Odatda fibrilla uzunligining kiymati kundalang ulchamidan bir necha barobar katta buladi. Fibrillyar kristallar kalinligi 10-20 nm bulib, uzunligi esa

bir kancha mikronlarga etadi. Fibrillyar kristallar mikrofibrillalardan tashkil topgan buladi. Mikrofibrillalar tugrlangan zanjirlardan yoki bukilib taxlangan konformatsiyali zanjirlardan tashkil topgan buladi (-shakl). -




Fibrillyar monokristall xosil kiluvchi polimerlarga misol bo'lib tsellyullozani kursatish mumkin. Bu polimerning aloxida mikrofibrillalari spiralga uralgan tasmani tashkil qiladi.

Tasmada esa makromolekulalar buklangan xolatda buladilar. Monokristallardagi mikrofibrillalar amorf uchastkalarni saklamaydi, deyarli nuksonsizdirlar.


Globullyar (Kalava) monokristallarda kristall turlarning tugunlari kalavasimon konformatsiyadagi makromolekulalardan tashkil topgan. Bunday kristallar ulchamlari bo'yicha yuqori bir jinsli bo'lgan biopolimerlar uchun xosdir.

Sferolitlar markazga nisbatan simmetriyaga ega bulgan polikristallik strukturalardir.



Markazlardan sferolitlashi usishi boshlanib, usish bir xil orientatsiyali lamellarni birikish xnsobiga sodir buladi. Simmetrii strukturalarni usishi ikki eki uch yunalishda bulishi mumkin. Markazdan usib chikaetgan bu strukturalar nurlar deyiladi. Monok-ristallardagi mikrofibrillalardan farkli sferolitlarni

tashkil kilgan fibrillalar amorf va kristall uchastkalardan tashkil topib, ular utivchi zanjirlar bilan boglangan.



Sferolitlarni nuksonlilik darajasi monokristadlarnidan yuqori bulib, ayrim polimerlar uchun 50-80% gacha boradi. Tuzilishining xususiyatlariga ko'ra sferolitlar radial va xalkasimon turlarga bo'linadi. Xalkasimon sferolitlarda fibrillalar xalka bo'lib joylashadi. Radial sferolitlarda esa amorf uchastkalar kushuv alomatini (maltiya kremtini) xosil kiladilar. Yukori kristallanish darajasida ayrim sferolitlar uz yuzalari bilan ta'sirlashb sferolit tasmalarini xosil kiladilar.

Shuni aytish kerakki, monokristallar suyultirilgan eritmalaridan kristallanganda xosil bulsa, sferolitlar kontsentrlangan eritmalar va polimer suyuqlanmalaridan xosil buladi.

Yukorida ko'rib o'tilgan barcha ustkurtma strukturalar issiklik xarakatining xal qiluvchi ta'sirida shakllanadi. Tashki deformatsiyalanish ta'sirida ustkurtma struktura o'zgaradi va polimer orientatsiyalangan xolatga utadi.

Tayanch suz va iboralar

Polimerning fizik strukturasi, ustkurtma (nadmoleku-lyar) struktura, amorf polimerlar ustkurtma strutskturasi, amorf polimerlar makromolekulalar joylashishida tartib, amorf polimerlar tuzilishining modeli, klasterlar, kristall polimerlar ustkurtma strukturasi, polimer kristallari uziga xos xususiyatlari, kristallanish darajasi, molekulyar taxlanish koeffitsienti, kristallit, monokristallar, lamellar, fibrillyar monokristall, fibrilla globulyar monokristallar, sferolitlar, utivchi zanjirlar.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlarni nadmolekulyar strukturasi deb nimaga aytiladi?
2. Nadmolekulyar struktura kanday omillarga bezlik? Nadmolekulyar struktura kanday jaraenlarni belgilab beradi?
3. Amorf polimerlarda tartibli joylashuv borligini kanday faktlar isbotlaydi?
4. Amorf polimerlarni tuzilishni kanday modellarini bilasiz?
5. Polimerlar kristalini tuzilishi kanday?
6. Polimer kristallarini xususiyatlari kanday?
7. Kristall polimerlarning nadmolekulyar strukturasi tavsiflab bering.
8. Domenlar qanday uchastkalar va u qaysi polimer uchun xos?
9. Polimerlarni kristallanish darajasi deganda nimani tushunasiz?
10. Polimerlarning kristall strukturalarining eng kup tarqalgan turlarini aytib bering.

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari

1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Strepixeev A.A., Derevitskaya V.A. Osnovi ximii visokomolekulyar-nix soedineniy. M.: Ximiya, 1976, 437 s.
2. Oudian Dj. Osnovi ximii polimerov. M.: Mir, 1974, 614 s.

Ma'ruza 15

Kristall polimerlar

Polimerlarning kristall zvenolarining va makromolekulalarining joylashishida uzoq masofada 3 ulchamli tartibga ega. Bunda kristall o'qlaridan bittasining yo'nalishi makromolekula yunalishi bilan mos tushadi. Shu sababli kristall polimerlarda zvenolarning joylashishida uzoq masofada tartib bo'lishi kerak, ya'ni uning makromolekulasi tartibli tuzilgan bulishi kerak. Kristallarda makromolekulalar joylashish zichligi maksimal bulishi kerak.

Kam tartibli amorf xshchatdan zanjirlari taxlangan kristall xshchatga utish makromolekula konformatsiyasining uzgarishini talab kdladi. Shuning uchun kristallanuvchi polimer ma'lum bir termodinamik va kinetik egiluvchanlikka ega bulishi kerak.

Kristallanish mexanizmi

Kristallanish ikki bosqichdan iborat: kristallanish markazining xosil bulishi, bu markazlarda kristallarning o'sishi. Kristallanish markazining xosil bulishi. Polimer suyuqlanmasida yoki eritmasida strukturaviy assotsiatlar hosil bulishiga yoki yo'qligiga olib keluvchi issiqlik fluktuatsiyasi mavjuddir.

Kristallanish markazi hosil bo'lishida erkin energiya uzgaradi. Bu uzgarish markazdagi molekulalarning umumiy miqdoriga boglik. Kristallanish markazining kritik ulchamiga n_{kr} erkin energiyaning maksimal qiymati to'g'ri keladi. n_{kr} da erkin energiyaning qiymati musbat bulib zarodishlar xdl byokaror emas va zarodish o'sish zarodishning yuqolish ehtimolidan katta. Zarodish ulchamining ortishi bilan erkin energiya kiymati manfiylashadi, yani sistema erkin energiyasi kamayadi. Gomogen va geterogen kristall markazi hosil bulishini farklashadi, gomogen zarodish xosil bo'lishida barqaror kristallanish markazi hosil bo'lishi amorf fazada makromolekularning agregatsiyalanishidir. Bu zarodishlar hosil bulish tezligi kristallanish temperaturasi bilan belgilanadi. Zarodish hosil bo'lish tezligini temperaturaga boglikligi kuyidagi tenglama bilan ifodalanadi.

$$\dot{N} = N_0 \exp \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi' (T_{n1}^0)^\alpha}{T_{kp} (\Delta T)^\alpha} \right]$$

$$\psi' = \frac{S \bar{\sigma}^{(\alpha+1)}}{K (\Delta H_{n1})^\alpha \rho_{kp}}$$

$\dot{N}$ - xajm birligida vaqt birligida xosil bulgan zarodishlar soni;

N_0 - konstanta;

ΔE - erkin aktivlanish energiyasi;

T_{pl}^0 - kristallarni suyulish temperaturasi muvozanat qiymati;

$$\Delta T = T_{n1}^0 - T_{kp}$$


T_{kr} - kristallanish temperaturasi;

$\bar{\sigma}$ - fazalar chegarasi hosil bulish energiyasining o'rtacha qiymati;

ΔH - suyuklanishning solishtirma issiqligi

σ, α - koeffitsientlar;

ρ_{kr} - kristall zichligi.



Tenglamadan kurinadiki kristallanish markazi xosil bulish tezligini temperturaga boglikligi maksimumga ega.

T_{pp} ga yaqin temperaturada barqaror zarodish hosil bo'lishi extimollgi kam. Bunga sabab makromolekulalarning yuqori harakatchanligidir. Shishalanish

temperaturasi ga yaqin temperaturada ham zarodish hosil bulish tezligi kichkina. Sababi sistemaning ichki energiyasi makromolekula konformatsiyasini

uzgartirib zich joylashish amalga oshishiga etmaydi.

Geterogen kristallanish suyuq fazada polimer tabiatidan farqlanuvchi tabiatli qo'shimchalar yoki maxsus kushilgan moddalar sun'iy struktura hosil qiluvchilar borligi xisobiga hosil buladi. Bu xolda zarodish hosil bo'lish tezligi geterogen struktura xosil qiluvchilar yuzasida makromolekulalar adsorbtsiyasi bilan belgilanadi.

Kristallning usishi

Kristallanish jarayonida kristallanish markaziga makromolekula sigmentlarining birikishi sodir buladi. Kristallarning usish tezligini ifodalovchi tenglama quyidagichadir.


$$\dot{G} = \dot{G}_0 \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi''(T_{nn})^k}{T(\Delta T)^\alpha} \right]$$

$\dot{G}_0$ - konstanta;

$\dot{G}$ - kristallarning usish tezligi;

Kristall usish tezligining temperaturasi bogliqligi maksimumga ega bulib u T_{pp} tomonga siljigandir. Bu makromolekulalar harakatchanligining kristall usish tezligiga kuproq ta'sir qilishi bilan bogliq. Kristallar o'sishi bir, ikki va uch o'q bo'ylab sodir bo'ladi. Bunda mos ravishda qalamcha, disk va sferalar hosil buladi. Kristallarning usishi ikkita usuvchi kristall uchrashganda sodir bulib, butun massa birinchi fazoviy holat - kristall holatga utadi.

Kristaldanishning tezligi kristallanishning umumiy tezligi kristallanish markazining hosil bulishi va kristallar usish tezligi bilan belgilanadi va quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:



$$\dot{I} = \dot{I}_0 \left[- \frac{\Delta E}{kT} - \frac{\psi(T_{nn})^k}{T(\Delta T)^\alpha} \right]$$

Kristallanish
temperaturaga
maksimumga ega

tezligish
bogliqligi
bulgan egri

chizshchdir. Maksimumga tugri keluvchi temperaturada maksimal kristallanish temperaturasi deyiladi. U polimerning strukturasiga kuprok egiluvchanligiga boglik.

$T_{m.kr.1}$ K polimer 203 – 219
 polisiloksan 218 tsis- 1,4-
 polibutadien 248 tsis-1,4-
 poliizopren.

Egiluvchanlik kamyishi bilan $T_{m.pr}$ ortadi. Kristallanish tezligini vaqtga boglikligi Avraami - Kolmogorov tenglamasi bilan ifodalanadi.


$$K_t = 1 - \exp(-k_k t^{n_k})$$

K_t - t vaktdagi kristallanish darajasi;

k_k - kristallanish tezlik konstantasi;

n_k - konstanta zarodish xosil bulish va kristallar usishini xarakterlaydi. $n_k = 1-4$

Kristallanish izotermasi ikkita uchastkadan iborat: S - shaklidagi egri chiziq (AO) Avraami -Kolmogorov tenglamasi bilan ifodalanadi va AV



uchastka, bu erda vakt davomida kristallanish darajasi deyarli tugri chiziq shaklida ortib boradi. OA birlamchi AV - ikkilamchi kristallanish t_0 -induktsion davr bulib bu vaktida deyarli kristall fazaga aylanish bulmaydi.


Kristallanish sharoiti asosan kristall

strukturaning morfolo-
 giyasi deffektnostligini belgilaydi.

Kristallning suyuklanishi

Kristallizatsiya – suyui kam tartibli holatidan tartibli qattiq holatga o'tish

– issiqlik ajralishi bilan boradi. Teskari jarayon suyuqlanish issiklik yutilishi bilan sodir bulib u ham birinchi turdagi fazoviy o'tishdir. Suyuqlanish temperaturasi sifatida kristallarning suyuqlanishi sodir bulgan temperatura kabul kilingan.



Polimer kristallarning farkli tarafi ularni ng surukturasini polimorfligidir va u sovitilganlik darajasi kancha ko'p bulsa, shunga yuqori bo'ladi, Brchuz navbatida suyuqlanish temperaturasi T_{pl} va kristal lanish temperaturnoy T_{kr} urtasidagi bogliklik borligini kursatadi va suyuqlanishni temperatura oraligida sodir bulishini keltirib chiqaradi. Yuqori va pastki egri chiziqlar kesishgan nuqta - T_{pl} - suyuqlanishni muvozanat temperaturasidir. Bu temperaturadan yuqorida kristallar mavjud bulmaydi.

Suyuqlanish temperaturasi kristall o'lchamlarga, uning defektligiga joylashish, zichligiga va boshqa faktorlarga bogliq. Masalan, laminar kristallarning suyuqlanishida birinchi navbatda buklanmalar oblasti suyuqlanib, lekin jarayon kristall ichkarisiga karab tarkaladi. Suyuqlanish muvozanat temperaturasi

$$T_{pl}^0 = \Delta N_{suyuq} / \Delta S_{suyuq}$$

ΔN_{suyuq} - suyuqlanish entalpiyasi;

ΔS_{suyuq} - suyuqlanish entropiyasi.

Masalan:

	T_{pl}^0	ΔN_{suyuq} , kDj/mol	ΔS_{suyuq} , Dj/(mol)*K)
PE	418	4,0	9,8
PP	445	10,9	24,3
PS	513	8,4	16.3
Butilkauchuk	272	12,7	46.7

Keltirilgan misolda kurinadiki, egiluvchan polimerning T_{pl}^0 si

kichik buladi, ΔS_{suyuq} esa yukori buladi.

Turli faktorlarning krishchllanishga ta'siri

Kuchlanishning kristallanishga ta'siri

Ekspluatatsiya kilish jarayonida polimerlardan olingan buyumlar kuchlanish ta'sirida buladilar. Biz yuqorida ko'rib o'tgan kristallanish konuniyatlari sistemaga kuchlanish tatsir qilmagan xol uchun topilgan. Kuchlanish kristallanish mexanizmini o'zgartirmaydi.

Kristallanish tezligi va kuchlanish o'rtasidagi bogliklik kuyidagicha ifodalanadi.

$$t_{1/2} = t_{1/2}^0 \exp(-\sigma\beta)$$

$t_{1/2}, t_{1/2}^0$ - kuchlanish ta'sir qilayotgan va qilmayotgan hol uchun kristallanishning yarim davridir.

σ - kristallizatsiya sodir buladigan kuchlanishdir.


β - konstanta, polimer strukturasi boglik.

Bu tenglamani logorifmlasak

$$\ln t_{1/2} = \ln t_{1/2}^0 - \beta\sigma$$

ya'ni $\ln t_{1/2}$ - σ urtasidagi bogliqlik tugri chiziq bo'ladi va to'g'ri burchak zichligidan "V" ning kiymatini topish mumkin.

Chuzilish deformatsiyasi natijasida chuzilgan zanjirlardan tashkil topgan kristallar ulushi tortib, taxlangan zanjirlardan (konformatsiyadagi) tuzilgan



kristallar ulushi kamayadi. Bu oldin chuzilgan polimerlar kristallanishda "Shish-kabob" tipidagi struktura yuzaga kelishiga sabab buladi.

Namunaga ta'sir kilayotgan kuchlanish uning suyuklanish

temperaturasini ham oshiradi. Suyuqlanish temperaturasi T_{sq} ning kuchlanishga ta'siri kuyidagi formula bilan ifodalanadi

$$T_{ck} = T_{ck} \exp(a\sigma) \quad (*)$$

$T_{sq}^0 - \sigma = 0$ dagi T_{sq} ; a - konstanta bo'lib kuchlanishning T_{sq} ga ta'sirini kursatadi. Kristallarning suyuqlanish temperaturasi bosimga ham bog'lik va quyidagicha ifodalanadi:

Odatda bosim monokristallar olish uchun ishlatiladi. Elasto-merlarning kristallanishi amorf polimerlarni deformatsiyalanishi jaraenidayoq sodir buladi. Agar deformatsiyalanish $T_{kr} > T_{sk}$ sharoitda, ya'ni amorf holatga olib borilsa, chuzilish darajasi ortib borishi bilan T_{sq} usadi va deformatsiyaning qandaydir $E - E_{sq}$ da $T_{sq} = T_{kr}$.

(*) tenglamadan kuchlanishi $\sigma = \sigma_{sq}$, ya'ni chuzilishda kristallanish boshlanadigan kuchlanish qiymatini topish mumkin. Kristallanish boshlanadigan deformatsiya qiymati E_{sq} T_{sq} va a ortishi bilan kamayadi.

Chuzilishdagi kristallanish jarayoni noizotermikdir, chunki deformatsiyalanish darajasi ortishi bilan T_{sq} o'sadi. Bundan tashqari kristallanish jaraenida kristallarni orientatsiyalanishi bilan murakkablashadi.

Polimer strukturasshing kristallanishga ta'siri

Polimerning kimeviy tuzimshi, zanjir konfiguratsiyasi, mole-kulyar massasi kristallanish jarayoniga xususan kristallanish markazi hosil bulish va kristall usish, jarayonlari kinetikasiga ta'sir qiladi. Polimerning kogeziya energiyasini ortishi zarodish hosil bulish energiyasini kamaytirib, kristalllar usish energiyasining ortishiga olib keladi. Ikkinchi faktor belgidovchi bulgani uchun umumiy kristallanish tezligi xam kamayadi.

O'rinbosarlar ta'siri ayniqsa vinil qatoridagi polimerlarda yaqqol

ko'rinadi. PE kristallanish tezligi uning sovitish tezligiga deyarli tengdir. Shu sababli, masalan PE 410-414 K dan xona temperaturasigacha sovitish jaraenida u deyarli tula kristall xolatga

o'tadi. Poliizobutilen esa bu sharoitda yukori elastik xolatda buladi va past temperaturalarda juda sekin kristallanadi. (248-233 K da $t_{1/2}=30$ sutka).

Polimer MM usishi sistema kovuipfkligini oshiradi va bu sis-temani sovitish darajasini oshirish bilan barobardir. Shu sababli zarodish dosil bulish tezligi ortib kristallanish tezligi kamayadi. Kristallanish tezligini MM ga boglikdagi ekstremal xarakterga ega. Egiluvchan, zanjir tartibliligi yushchori bulgan polimerlar uchun MM ortishi bilan kristallanish tezligi ortadi. Sabab bunda qovushqoqlik ortishi zarodish hosil bulish energiyasini kamaytiradi. Polimer egiluvchanligining kamayishi bilan MM ortishi kristallanishning umumiy tezligini kamaytiradi.

Trans- polimerlar tsis- polimerlarga qaraganda tezroq kristallanadi va yuqoriroq suyuqlanish temperaturasiga egadirlar.

Tsis-1,4-poliizopren xona temperaturasida juda sekin kristallanadi va yukori elastik material kabi deformatsiyalanadi. Trans-1,4-poliizopren shu sharoitda deyarli butkul kristallangandir. Polimerlarda anomal zvenolarning bulishi kristallanishni deyarli tormozlab qo'yadi. Strukturaviy va fazoviy tartibsizlik kristallanish tezligiga salbiy ta'sir qiladi. Tartiblilik darajasi ortishi bilan zarodish hosil bo'lish tezligi kamayadi, chunki zarodishlarni kristall razmeriga o'sishi uchun sharoit bo'lmaydi. Chizikli polimerlar kristallanishning tezligi bilan xarakterlanadilar.

Tarmoqlanish va ayniiqsa to'rsimon struktura kristallnish tezligiga turlicha ta'sir qiladilar.

Umumiy konuniyat shuki, polimerlarpagi istalgan tartibsizligi (anomal zvenolar, turlanish, tarmoklashchsh) kristallanish tezligiga bir xil ta'sir kiladi sovitish darajasi pastroq bo'lganda xosil bulishini tezlashtiradi va kristall usishini oekinlashtiradi. Sovitish darajasi yukori bulganda ikkala jaraenni sekiklashtiradi. Bu jarayonlarning xdr birini kristallanishning umumiy tezligiga

ta'siri makromolekulani kinetik egiluvchanligiga bogliq kristallarni usish tezligi zanjir konfiguratsiyasiga ko'proq bog'liq. Shu sababli bu holda anomal zvenolarning tarmoqlovchi roli choklanishidan kuproq buladi.

Plastifikatorlar

Makromolekulyar egiluvchanligini oshirib fizik tur boglar sonini kamaytiruvchi va erkin xakjmn oshiruvchi plastifikatorlar o'ta sovitish (pereoxlajdenie) kabi ta'sir kiladilar ya'ni zarodish hosil bulish tezligini kamaytiradilar va kristallar hosil bulish tezligini oshiradi. Kristallanishing umumiy tezligini plastifikator konsentratsiyasiga boglikdagi ekstremal xarakterga ega.

Tuldiruvchilar polimer tuldiruvchi sirt chegarasida kuchlanishni ortirib zorodish horil bo'lish tezligini oshiradi. Bunda mos ravishda kristallanishning umumny tezligi xam ortadi. Ayrim hollarda masalan, elastomerlarda aktiv tuldiruvchilar kristallanishni sekinlashtiradi. Bunga sabab ulj ishtirokida kristallar o'sish tezligining kamayishidir.

Tayanch so'z va iboralar

polimerning kristalli xususiyatlari, kristall xolatga o'tish xususiyatlari, kristallanish mexanizm, kristallanish markazi, xosil bulishi, kristall usishi, kristallanish tezligi, maksimal kristallanish temperaturasi, kristall suyuklanishi, struktura polimorfligi, suyuklanish temperaturasini kristallanish temperaturasiga boglikligi, suyuklanish muvozanat temperaturasi, kristallanishga, ta'sir kiluvchi faktorlar: kuchlanish, polimer strukturasini, plastifikatorlar, tuldiruvchilar.

Kaytarish uchun savollar

1. Polimerlarni kristallarini tavsiflab bering.
2. Polimerlarni kristallanish mexanizmi nimadan iborat?
3. Kristallanish markazini xosil bulishini tushuntirib bering.

4. Kristallni usish boskichi kanday utadi?
5. Kristallanish tezligi kanday omillarga boglik?
6. Koistallni suyuklanishi kanday omillarga boglik?
7. Krkstallanishga kuchlanish kanday ta'sir kiladi?
8. Kristallanishga polimer strukturasi kanday ta'sir kiladi?
9. Polimer strukturasi (kimyoviy tuzilishi, molekulyar massasi) kristallanishga qanday ta'sir kursatadi?
10. Polimerni suyuqlanish xarorati kristallanishga qanday ta'sir kursatadi?

Foydalanish uchun adabietlar

Asosiylari


1. Kuleznov V.N., Shershnev V.A. Ximiya i fizika polimerov. M., Visshaya shkola, 1988, 312 s.
2. Semchikov Yu. D., Jiltsov S.F., Kataeva V.N. Vvedenie v ximiyu polimerov. M.: Visshaya shkola, 1988, 151 s.
3. Askarov M. A., Yoriev O., Yodgorov E. Polimerlar fizikasi va kimyosi, Toshkent, O'qituvchi, 1993.

Qo'shimchalari

1. Perepechko I.I. Vvedenie v fiziku polimerov. M.: Ximiya, 1978, 312 s.

Ma'ruza 16

Kristall polimerlarni mexanik (deformatsion) xossalari




Kristall polimerlar kristall va amorf uchastkalardan tashkil topgandir. Kristall uchastkalar qayishqoq qattiq jismlar kabi deformatsiya lanadi. Amorf uchastkalar sharoitiga karab (temperatura va tezlik) shishasimon ($T < T_{sh}$), yuqori elastik ($T_{sh} < T < T_0$) yoki qovushqoq oquvchan ($T > T_0$) materiallar kabi deformatsiyalanadi. Kristall polimerlar amorf poimerlarga nisbatan yuqoriroq; qovushqoqlik moduliga, kamroq beriluvchanlik (podatlivost) va kamroq tiklanuvchanlik (vosstanavlivaemost) ga egadirlar. Ammo biki kristall va "beriluvchan" amorf uchastkalarining jamlanishi kristall polimerlarni amorf poimerlarga nisbatan kamroq murtlik namoyon kilish imkonini beradi. Kristall

poimerlar deformatsiyalanish egri chizigi tashqi ko'rinishi buyicha shshasimon polimerlarnikiga uxshab ketadi. Unda 3 ta uchastkani ajratish mumkin. 1-boskichda qayishqoq deformatsiya rivojlanadi va u namunadagi erkin xajmni oshradi. Kristallanish darajasi qancha yuqori bulsa, qayishqoqlik moduli shuncha katta buladi. Bu boskichda dastlabki kristall struktura buziladi. 2-boskichda kristall struktura qaytadan quriladi va kuchlanish ta'sirida yangi struktura hosil bo'ladi. Bu jarayon rekristallanish deyiladi. Namuna ma'lum bir joyda ingichkalanib "buyincha" hosil buladi. Buyincha hosil bulish kuzatilgan kuchlanish okuvchanlik chegarasi (σ_T) deyiladi. 3-uchastka boshiga kelib barcha materiallar buyinchaga o'tadi va shu paytdan boshlab bo'yincha deformatsiyalanadi. Kristall va amorf polimerlarda buyincha xosil bo'lish mexanizmi turlichadir. 3-bosqichga kelib kristall morfologiyasi o'zgaradi: dastlabki (ko'proq sferolidan) fibrillyar strukturaga o'tiladi. Egri chiziq shakli polimerlarning kristallanish darajasiga va jarayonida olib borish sharoitiga bogliq. Strukturani qayta ishlanishi relaksatsion xarakterga ega. Egiluvchan chegarasi deformatsiya tezligi ortadi va temperatura kamayishi bilan ortadi.

AMORF POLIMERLARNING UCh FIZIKAVIY XOLATI.

Amorf polimerlar uchun temperaturaga qarab uch fizik xolat xosdir: shishasimon, yuqori elastik va qovushqoq oquvchan. Fizik xolatlarni mavjudligining temperatura soxasini aniklash uchun termomexanik analiz usuli qo'llaniladi. Polimerni deformatsiyalanishini temperaturaga bog'liqlik egri chizig'i termomexanika egri chizigi deb ataladi.



Egri chiziq uch uchastkadan iborat bulib, ular uch fizik xolatga mos keladi.

I - shishasimon xolat bulib, unga kam darajadagi deformatsiya xosdir;

II - yukori elastik xolat bulib, unga katta kaytar deformatsiya xosdir

III - kovushkok okuvchan xolat bulib, unga qaytmas deformatsiya (okish) xosdir.

Polimerii bir fizik xolatdan boshkasiga utishiga mos keluvchi ikkita temperatura soxasi mavjuddir. Mos holda shishasimon xolatdan yukori elastik xolatga utish - shishalanish temperaturasi va kovushkok okuvchan xolatga o'tish temperaturasi - oquvchanlik temperaturasi deyiladi.

Yukori elastik xolat. Bu xolat uchun katta qaytar deformatsiya-larning mavjudligi eeng xarakterli belgidir. Yukori elastik deformatsiyasining tabiatini aniqlash uchun ideal kauchukning deformatsiyalanishini ko'rib chiqaylik. Ideal kauchukning deformatsiyalanishida xajm o'zgarmaydi, ya'ni $V = \text{const}$, $T = \text{sonst}$. Bu xol uchun erkin energiyaning o'zgarishi kuyidagiga teng:

$$dF = dU - TdS$$

Bu erda dU - ichki energiya; T - absolyut temperatura; dS -entropiya.

Kauchuk chuzilganda $dA = dF = fdl$ (f - ta'sir kuchi; dl - deformatsiya) ga teng mexanik ish bajariladi.

$$f dl = dU - T dS$$

$$f = \left(\frac{dU}{dl} \right)_{T, V} - T \left(\frac{dS}{dl} \right)_{T, S}$$

V

Tenglamadan kurinadiki, ichki energiyani va entropiyani uzgarishi bilan boglik kayishkok kuch mavjud. Ideal kauchuk deformatsiyalanganda xajm uzgarmasligi sababli tenglamaning birinchi xadi nolga aylanadi yukori elastik deformatsiyalanishdagi kayishkok kuch

$$f = - T \frac{dS}{dl}$$

teng buladi, ya'ni yukori elastik deformatsiyalanish entropiyaviy xarakterga ega degan xulosa chikadi.

